Loyihaning bosh qismida korxonadagi aspiratsiya qilinadigan uskunalar aniqlanishi, havo almashinuvi hisoblanishi va tarmoqning joylashuvi keltirilishi lozim. Loyihaning grafik qismi hajmi 24-bichimli (594×840) uchta chizmadan iborat:


1-chizma. Havoni almashtirish qurilmasi 1:50 masshtabda chiziladi.

Bu chizmada korxona binosi qavatlarining ustidan ko'rinishi va aspiratsiya qilinadigan uskunalar va havoni almashtirish qurilmasining havo o'tkazgichlari bilan birgalikda chizilgan chizmasi (havo o'tkazgichlar bitta qalin chiziq bilan chiziladi) qirqimlarda ko'rsatiladi.

2-chizma. 1:20 yoki 1:10 masshtabda bitta havoni almashtirish tarmog'idagi havo o'tkazgichlarning umumiy chizmasi chiziladi.

3-chizma. 1:5 yoki 1:10 masshtabda havo o'tkazgich shakldor qismlarining (tirsak, konfuzor, diffuzor, troynik) yoyilma chizmasi yoki ventilator, chang tozalagichning montaj chizmasi chiziladi.

Tushuntirish xatiga hisoblar, tarmoqning tekislikdagi sxemasi (41-rasm) va eskizlar ilova qilinmog'i darkor.



41-rasm. P3-BAБ va P3-БМО markali urib tozalovchi mashinalar aspiratsiyasining tekislikdagi sxemasi:

1 — ПЦИ-15,6 filtri; 2 — P3-ББ-Ц5-37-5,3 ventilatori.

Aspiratsiya qurilmalari tarmoqlarini joylashtirishda quyidagilar inobatga olinishi kerak:

— alohida aspiratsiya tarmoqlariga texnologik jarayonlardagi ketma-ket joylashgan (texnologik tamoyil asosida) uskunalarining birlashtirilishi. Bunda uskunalar so'rib olayotgan changning bir xilligi ta'minlanadi;

— uskunalarining bir vaqtda ishlashini (bir vaqtda ishlash tamoyili) hisobga olib bir tarmoqqa birlashtirilishi;

— bir-biriga yaqin joylashgan uskunalarining bir tarmoqqa birlashtirilishi. Bunda aspiratsiya tarmog'i kalta va gorizontal havo o'tkazgichlarning uzunligi eng kichik bo'lishi ta'minlanadi;

— havosining harorati har xil bo'lgan uskunalarining (harorat tamoyili) bitta aspiratsiya tarmog'iga birlashtirmasligi. Sovuq va issiq havolar aralashishi natijasida havo o'tkazgichlar va havoni almash-tirish qurilmalarida suv bug'lari suvga aylanishi mumkin;

— mustaqil mahalliy aspiratsiya qurilmalari uchun havo oqimi rejimlarini sozlovchi qurilmasi bo'lgan mashinalarni hamda xususiy ventilatori bo'lgan mashinalarni loyihalash kerak (ishonchli tamoyili);

— aspiratsiya tarmog'iga kiritilgan uskunalarni joylashtirishda havo o'tkazgichlar simmetrik bo'lishi ta'minlanishi. Bunday joy-lashtirish havo o'tkazgichlarni hisoblashni, montaj qilishni va tar-moqni sozlashni osonlashtiradi.

Aspiratsiya qurilmalari joylashtirilib bo'lgandan keyin har bir aspiratsiya tarmog'i uchun chang ajratgich va ventilator tanlanadi.

2-§. ASPIRATSIYA QURILMASINI LOYIHALASH TARTIBI

1. Korxona binosi qavatlarining (elevatorning ish binosi, silos tagidagi yoki ustidagi qavati, tegirmonning donni tozalash yoki maydalash bo'limi qavatlari, omixta yem korxonalarining qavatlarining) ustidan ko'rinishi va qirqimlari 1:50 masshtabda ECKD ga rioya qilgan holda 1-chizmaga ko'chirib chiziladi.

2. Binoga o'rnatilgan hamma uskunalar o'rganib chiqiladi va aspiratsiyalash talab qilinadigan uskunalar aniqlanadi.

3. Binodagi hamma aspiratsiya qilinadigan uskunalar o'id ma'lumotlar birinchi jadvalda yoziladi.

4. Umumiy havo sarfi aniqlanadi va markaziy ventilatsiya tarmoqlari uchun binodagi havo almashinuvi hisoblanadi.

5. Joylashtirish tamoyillariga asoslanib, aspiratsiya qilinadigan uskunalar havoni almashtirish tarmoqlariga birlashtiradi.

6. Loyihalanadigan havoni almashtirish tarmog'i uchun chang tozalagich hisoblanadi va tanlanadi. Binoning qavati va qirqimlarida (1-chizma) chang tozalagichni o'rnatish joyi belgilanadi. Chang tozalagichning qarshiligi hisoblanadi.

7. Loyihalanadigan havoni almashtirish tarmog'i uchun daslabki ventilator tanlanadi, uni binoning qavati va qirqimlarida o'rnatish joyi belgilanadi (1-chizma).

8. 1-chizmadagi binoning qavati va qirqimlarida tarmoqning havo o'tkazgichlari yo'nalishi bo'yicha bir qalin chiziq bilan chiziladi.

9. Loyihalangan aspiratsiya tarmog'ining tekislikdagi hisoblash sxemasi chiziladi. Bu sxemada hisoblash uchun kerakli hamma qiymatlar yoziladi.

10. Tarmoqni hisoblash sxemasi birinchi usul (bir metr uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimni topish usuli) bilan hisoblanadi.

11. Tarmoqni hisoblash natijalari asosida ventilator uzil-kesil tanlanadi va uning quvvati, foydali ish koeffitsiyenti, aylanish chastotasi aniqlanadi.

12. Ventilator uchun elektr dvigatelining quvvati hisoblanadi va elektr dvigateli tanlanadi.

13. Aspiratsiya tarmog'ining tekislikdagi sxemasining yig'ma chizmasi (ikkita chizma) 1:10 yoki 1:20 masshtabda chiziladi.

14. Havo o'tkazgichning shakldor qismi yoki ventilator, chang tozalagichni montaj qilish chizmasi 1:5 yoki 1:10 masshtabda chiziladi.

3-§. CHANG AJRATGICHNI HISOBLASH VA TANLASH

Aspiratsiya tarmog'ining umumiy havo sarfi (1-jadval) va havo o'tkazgichlardagi qo'shimcha so'riladigan (5%) havo sarfini hisobga olib chang tozalagich tanlanadi va uning qarshiligi aniqlanadi.

Tanlangan aspiratsiya tarmoqlarning xiliga va changning tavsifiga qarab, chang tozalagich tanlanadi.

Misol. Elevatordagi aspiratsiya tarmoqlari havoni tashqariga chiqarib tashlaydi, shuning uchun ishlatishda oddiy va ishonchli БЦШ, УЦ siklonlari qo'llaniladi. Havoni yuqori darajada samarali tozalash uchun siklonlar o'rniga so'ruvchi filtrlar ishlatiladi yoki siklonlardan keyin havo yana bir marta filtrlarda tozalanadi.

Tegirmonning donni tozalash, maydalash va qoplash bo'limlarida, yorma korxonalarining qobiqni ajratish bo'limlarida Г4-1БФМ, А1-БФМ, РЦИ markali so'ruvchi filtrlar qo'llaniladi.

Tarmoqda siklonlar quyidagicha tanlanadi.

Aspiratsiya tarmog'ining havo sarfi asosida 2...6-illovalardan diametri kichik bo'lgan siklon tanlab olinadi va uning tashqi o'lchamlari yozib qo'yiladi. Siklonning kirish teshigi yuzi aniqlanadi va quyidagi formula yordamida havoning kirish tezligi hisoblanadi:

$$v_k = Q/3600 \cdot S \text{ m/s,}$$

bu yerda: Q — aspiratsiya tarmog'idagi havo sarfi, m^3/soat ; S — siklonga havo kiradigan teshikning yuzi, m^2 .

Topilgan tezlik eng maqbul tezlik bilan solishtiriladi (1-ilova). Agar hisoblangan tezlik eng maqbul tezlikka yaqin bo'lsa, siklon to'g'ri tanlangan bo'ladi.

Siklonning qarshilik bosimi (Pa) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$H_s = \xi_s \frac{1,2 \cdot v_k^2}{2}, \text{ Pa}$$

bu yerda: v_k — siklonga kirayotgan havoning tezligi.

Misol. Havo sarfi $Q = 2720 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan aspiratsiya qurilmasi uchun batareyali siklon tanlang.

Havo o'tkazgichdagi 5% so'rilishni hisobga olsak, tarmoqdagi havo sarfi quyidagiga teng bo'ladi.

$$Q = 1,05 \cdot 2720 = 2860 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Havo sarfi (Q) orqali 5-ilovadan 4БЦШ-325 markali batareyali siklon tanlanadi. Kirish teshigining o'lchamlari 5-ilovadan aniqlanadi.

Siklonga kirish teshigining yuzi hisoblanadi:

$$S = B \cdot \Gamma = 0,39 \cdot 0,14 = 0,0546 \text{ m}^2.$$

Siklonga kiradigan havoning tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$v_k = \frac{Q}{S} = \frac{2860}{3600 \cdot 0,0546} = 14,52 \text{ m/s.}$$

Aniqlangan tezlik eng maqbul tezlikka (15 m/s) yaqin.

Siklonning qarshilik bosimi hisoblanadi:

$$H_s = \xi_s \frac{1,2 \cdot v_k^2}{2} = 5 \cdot \frac{1,2 \cdot (14,52)^2}{2} = 632,5 \text{ Pa.}$$

Aspiratsiya qurilmalari uchun tozalovchi filtr quyidagicha tanlanadi va hisoblanadi. Chang tozalagichning filtrlovchi yuzi havo sarfi va filtrning matosiga tushayotgan ruxsat etilgan solishtirma yuklama orqali quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_f = Q_t / Q_s,$$

bu yerda: Q_t — tarmoqdagi havo sarfi; Q_s — filtrlovchi matosiga tushayotgan solishtirma yuklama.

Topilgan filtrlovchi yuzaga yaqin bo'lgan ПЦИ filtri 7, 8, 9-ilovalardan tanlanadi va filtrning haqiqiy solishtirma yuklamasi aniqlanadi.

Misol. Ventilatsiya qurilmasining tarmoqdagi havo sarfi $Q_t = 2860 \text{ m}^3/\text{soat}$. Chang tozalagichning filtrlovchi yuzi aniqlanadi

$$S_f = Q_t / Q_s = 2860 / 420 = 6,81 \text{ m}^2.$$

Hisoblab topilgan filtrlovchi yuza $S_f = 6,81 \text{ m}^2$ orqali 9-ilovadan ПЦИ 6,9 markali filtr tanlanadi. Uning filtrlovchi yuzi $S_f = 6,9 \text{ m}^2$

4-§. ASPIRATSIYA TARMOG'INI HISOBLASH

Aspiratsiya tarmog'i 1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimni topish usuli bilan hisoblanadi.

Misol. Tegirmonning donni tayyorlash bo'limida joylashgan bug'doy donining yuzasiga quruqlayin ishlov beruvchi mashinalarning aspiratsiyasini hisoblang.

Aspiratsiya qilinadigan mashinalarni aniqlash. 41-rasmda berilgan uskuna va mashinalarning nomi, soni, havo sarfi va qarshilik bosimlari 10-ilovadan aniqlanadi va 1-jadvalga yozib qo'yiladi.

1-jadval

Tartib raqa- mi	Uskuna va mashinalarning nomi va markasi	Soni	O'rnatish qavati	Havo sarfi, m^3/soat		Mashina- ning qarshilik bosimi, Pa
				bir mashi- nada	hamma mashina- larda	
1	ПЗ-БАБ aspiratori	1		4800	4800	700
2	ПЗ-БМО-6 qayroqlash mashinasi	4		300	1200	140

Jami havo sarfi $Q = 6000 \text{ m}^3/\text{soat}$.

Binodagi havo almashinuvini hisoblash. Tegirmon binosidagi havo almashinuvi $i = 1 - 1,5$ bo'lishi kerak. Buning uchun binodagi havo almashinuvi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$i = Q_j / V_b = 6000 / 3110 = 1,9,$$

bu yerda: i — binodagi bir soatda havo almashinuvi; Q_j — qavatdagi mashinalarning jami havo sarfi; $Q_j = 6000 \text{ m}^3/\text{soat}$; V_b — mashinalar o'rnatilgan binoning hajmi:

$$V_b = a \cdot b \cdot h = 18 \cdot 8 \cdot 9,6 = 3110,4 \text{ m}^3.$$

Bu aniqlangan havo almashinuvi me'yoriy havo almashinuviga yaqin bo'lganligi sababli qo'shimcha havo sarfi hisoblanmaydi.

5-§. ASPIRATSIYA QURILMASI UCHUN CHANG TOZALAGICH TANLASH. CHANG TOZALIGICHNING QARSHILIK BOSIMINI ANIQLASH

Aspiratsiya tarmoqlariga chang tozalagich tanlash uchun ularning havo sarfi va filtrning filtrlovchi yuzi topiladi.

Aspiratsiya qurilmalari tarmoqlaridagi havo sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = Q_j \cdot 1,05 = 6300 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Filtrlovchi yuza quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_f = Q / g_s = 6300 / 450 = 14 \text{ m}^2,$$

bu yerda: $g_s = 420 \dots 480 \text{ m}^3/\text{soat}$ — filtrlovchi matoga tushuvchi solishtirma yuklama (1—18-jadvallar) (2).

Aniqlangan filtrlovchi yuza $S_f = 14 \text{ m}^2$ asosida 9-ilovadan ПЦИ 15,6-24 markali filtr tanlanadi. Uning filtrlovchi yuzi $S_f = 15,6 \text{ m}^2$.

Filtrning qarshilik bosimi aniqlanadi (3). ПЦИ filtrlarining qarshilik bosimi $H_f = 1100 \text{ Pa}$.

6-§. ASPIRATSIYA QURILMALARI UCHUN OLDINDAN VENTILATOR TANLASH

Ventilatorning havo sarfi (1-jadval) va taxminiy bosimini aniqlagandan keyin ventilatorning tavsifnomalaridan (15-ilova) foydali ish koeffitsiyenti eng katta bo'lgan ventilator tanlanadi.

Ventilatorning taxminiy bosimi. $H_v = 1500 \text{—} 1800 \text{ Pa}$ qilib olinadi.

Ventilatorning havo sarfi quyidagicha aniqlanadi.

$$Q_v = Q_j + Q_s = 6000 + 600 = 6600 \text{ m}^3/\text{soat},$$

bu yerda: $Q_v = Q_{s1} + Q_{s2}$ — qo'shimcha so'riladigan havo sarfi, tarmoqdagi umumiy havo sarfining 10% ni tashkil etadi; Q_{s1} — filtda qo'shimcha so'riladigan havo sarfi; Q_{s2} — ventilatsiya tarmog'ida so'riladigan qo'shimcha havo sarfi:

$$Q_{s1} = Q_v \cdot 0,05 = 6000 \cdot 0,05 = 300 \text{ m}^3/\text{soat};$$

$$Q_{s2} = Q_v \cdot 0,05 = 6000 \cdot 0,05 = 300 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Aniqlangan havo sarfi $Q_v = 6600 \text{ m}^3/\text{soat}$ va taxminiy bosim $H_v = 1800 \text{ Pa}$ asosida 15-ilovadan P3-BB-CB-37-5,3 ventilator tanlanadi. Uning foydali ish koeffitsiyenti $\xi_v = 0,74$.

7-§. ASPIRATSIYA TARMOQLARIDA YO'QOTILGAN BOSIMNI HISOBLASH

Aspiratsiya tarmoqlaridagi havo o'tkazgichlarning qarshilik bosimi 1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimni topish usuli bilan hisoblanadi.

Hisoblanadigan tarmoq asosiy magistraldagi AB, BB, BG, GD, DE qismlar va yon qismlar ab, bb, bg, dg, ji, ig, gb dan iborat (41-rasm). Tarmoqdagi yo'qotilgan bosimni hisoblashda yon qismda yo'qotilgan bosim asosiy qismda yo'qotilgan bosim bilan tenglashtiriladi.

AB qismni hisoblash

AB uchastkadagi mashinaning havo sarfi Q_m 10-ilovadan olinadi: $Q_m = 4800 \text{ m}^3/\text{soat}$. Tarmoqning havo o'tkazgichidagi havoning tezligi eng maqbul $v = 12 \text{ m/s}$ tezlik sifatida qabul qilinadi. Tarmoqdagi havo sarfi $Q_m = 4800 \text{ m}^3/\text{soat}$ va tezlik $v = 12 \text{ m/s}$ asosida 17-ilovadan havo o'tkazgichning diametri (D) topiladi. $D = 355 \text{ mm}$.

Havoning tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$v_h = Q_v / 3600 \cdot S = 4800 / 3600 \cdot 0,0989 = 13,48 \text{ m/sek},$$

bu yerda: S — havo o'tkazgich diametrining ko'ndalang kesimi yuzi. $S = 0,0989 \text{ m}^2$ (17-ilova).

Aniqlangan tezlik 6-jadvalning 3-ustuniga yoziladi.

Dinamik bosim 17-ilovadan aniqlanadi va 6-jadvalning 9-ustuniga yoziladi. $H_d = 110 \text{ Pa}$.

1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim 17-ilovadan aniqlanadi va 6-jadvalning 5-ustuniga yoziladi: $R = 5,1 \text{ Pa}$.

AB qismning uzunligini aniqlash: AB qismning uzunligi ikkita havo o'tkazgichning uzunligi ($l_1 + l_2$) yig'indisidan iborat (41-rasm):

$$L = l_1 + l_2 = 0,2 + 1,4 = 1,6 \text{ m.}$$

Topilgan uzunlik 6-jadvalning 6-ustuniga yoziladi.

Havo o'tkazgichning to'g'ri qismlarida yo'qotilgan bosim aniqlanadi va 6-jadvalning 7-ustuniga yoziladi:

$$H_{t.h} = R \cdot L = 5,1 \cdot 1,6 = 8,2 \text{ Pa.}$$

AB qismdagi konfuzor, tirsak va troyniklarning qarshilik ko'effitsiyentlari ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Konfuzorning qarshilik ko'effitsiyenti 2-jadvaldan topiladi.

2-jadval

Aspiratsiya qilinadigan mashinalarda konfuzorning qarshilik ko'effitsiyenti

h_k/D	α , grad								
	0°	10°	30°	45°	60°	90°	120°	150°	180°
0,10	0,50	0,40	0,25	0,20	0,18	0,24	0,32	0,41	0,50
0,25	0,50	0,34	0,17	0,13	0,14	0,21	0,30	0,39	0,50
0,60	0,50	0,28	0,13	0,10	0,12	0,20	0,29	0,38	0,50
1,00	0,50	0,27	0,11	0,09	0,11	0,19	0,28	0,38	0,50

Qarshilik ko'effitsiyenti konfuzor balandligining diametriga nisbati va bukilish burchagi (α) asosida aniqlanadi:

$$h_k/D = 450/355 = 1,6; \quad \operatorname{tg} \alpha/2 = \alpha - D/2 \cdot h_k = 950 - 355/2 \cdot 450 = 0,65;$$

$$\alpha = 60^\circ; \quad \xi_k = 0,15,$$

bu yerda: h_k — konfuzorning balandligi, mm; D — konfuzorning diametri.

Tirsakning qarshilik ko'effitsiyenti 3-jadvaldan aniqlanadi.

3-jadval

Dumaloq va to'rtburchak silliq tirsak ($R_0 = nD$)

α , grad	$R_0 = D-1$	1,5D	2,0D	2,5D	3,0D	6,0D	10,0D
7,5	0,028	0,021	0,018	0,016	0,014	0,010	0,008
15	0,058	0,044	0,037	0,033	0,029	0,021	0,016
30	0,11	0,081	0,069	0,061	0,054	0,038	0,030
60	0,18	0,14	0,12	0,10	0,091	0,064	0,051
90	0,23	0,18	0,15	0,13	0,12	0,083	0,066
120	0,27	0,20	0,17	0,16	0,13	0,10	0,076
150	0,30	0,22	0,19	0,17	0,15	0,11	0,084
180	0,33	0,25	0,21	0,18	0,16	0,12	0,092

Qarshilik ko'rsatkichining bukilish burchagi (α) va radiusi (R) asosida aniqlanadi:

bu yerda: α — tirsakning bukilish burchagi; $R = 2D$, $\xi_t = 0,15$,
Troynikning koeffitsiyenti 4-jadvaldan aniqlanadi.

So'ruvchi havada troynikning qarshilik koeffitsiyenti

4-jadva

α , grad	S_a/S	S_{yo}/S	Q_{yo}/Q						
			0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9
30	0,2	0,6	0,3	0,3	0,3	0,2	0,0	-0,5	-4
		0,7	-8	-2,6	-0,6	0,0	0,2	0,4	0,4
		0,8	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	-0,1	-2,8
		0,8	-12	-4,0	-1,2	-0,1	0,2	0,4	0,4
		0,8	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3	-2,3
30	0,3	0,5	-17	-5,4	-1,7	-0,1	0,2	0,4	0,4
		0,6	0,3	0,3	0,3	0,2	-0,1	-2,1	-15
		0,7	0,3	0,3	0,3	0,2	-0,1	-1,4	-11
		0,8	4,0	-1,2	-0,1	0,2	0,3	0,4	0,4
		0,8	0,3	0,3	0,3	0,2	0,0	-1,0	-8
30	0,4	0,5	-5,0	-1,4	-0,2	0,1	0,3	0,4	0,4
		0,6	0,4	0,4	0,4	0,3	0,1	-0,6	-7
		0,7	-8,0	-2,4	-0,4	0,1	0,3	0,4	0,4
		0,8	0,2	0,2	0,1	0,0	-0,9	-4,6	-28
		0,8	0,2	0,2	0,1	0,0	-0,6	3,2	20
30	0,5	0,5	-6	-3,2	-0,8	0,0	0,2	0,4	0,4
		0,6	0,2	0,2	0,1	0,0	-0,4	2,4	-14
		0,7	-7	-3,3	-0,8	0,0	0,2	0,3	0,4
		0,8	0,2	0,2	0,1	0,0	-0,4	-2,4	-14
		0,8	-10	-4,6	-0,8	0,0	0,2	0,3	0,4
30	0,5	0,3	0,2	0,1	-0,3	-1,3	-5,4	-19	-100
		0,4	-11	0,6	0,8	1,0	1,0	1,0	1,0
		0,5	0,2	0,1	-0,1	-0,9	-3,4	-13,9	-75
		0,6	-22	0,5	0,8	0,9	0,9	0,9	0,9
		0,7	0,2	0,2	0,2	0	-0,5	-2,1	-8,1
		0,8	-31	-1,2	0,2	0,5	0,7	0,7	0,7
		0,9	0,2	0,2	0	-0,5	-2,1	-8,1	-46
		1,0	-52	-2,5	-0,6	0,0	0,2	0,3	0,4
		1,1	0,2	0,2	0,1	-0,1	-0,9	-4,1	-24
		1,2	-70	-3,0	-0,8	0,0	0,2	0,3	0,4
		1,3	0,2	0,2	0,1	0	-0,8	-3,8	-23
		1,4	-77	-4,0	-0,8	0,0	0,2	0,3	0,4

α , grad	S_a/S	S_{y0}/S	Q_{y0}/Q								
			0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9
30	0,6	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,1	-1,0	-3,0	-8,0	-26	-140
			-42	-0,2	0,6	0,9	1,0	1,0	-	-	-
		0,3	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,6	-2,1	-6,8	-23	-125
			-10,4	0,8	-0,6	0,9	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
		0,4	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,5	-5,0	-17	-96
			-18	-1,8	0,4	0,8	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9
		0,5	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,1	-8,8	-2,5	-10	-57
			-30	-6,0	-0,1	0,5	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7
		0,6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,2	-6,3	-40
			-45	-8,1	-2,3	-0,6	0,0	0,2	0,3	0,4	0,4
		0,7	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,1	-1,2	-5,4	-36
		0,8	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	0,7	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,4	-1,5	-4,0	-	-38	-200
			-3,8	-0,1	0,7	0,9	1,0	1,0	12,0	-	-
		0,3	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,6	-2,5	-	-28	-150
			-9,0	-0,6	0,7	0,9	1,0	1,0	-8,0	1,0	1,0
		0,4	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,3	-1,9	1,0	-25	-140
			-16	1,2	0,6	0,8	0,9	0,9	-7,0	0,9	0,9
		0,5	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,3	0,9	-16	-91
			-25	-4,7	0,0	0,6	0,7	0,7	-5,0	0,7	0,7
		0,6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,3	0,7	-7,0	-49
			-40	-7,2	-2,0	-0,6	0,0	0,2	-1,6	0,4	0,4
30	0,8	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,5	-2,0	-5,9	-16	-52	-278
			-3,2	0,1	0,7	0,9	1,0	1,0	-	-	-
		0,3	0,2	0,2	0,1	-0,1	-1,1	-3,4	-	-3,5	-192
			-8	-0,4	0,7	0,9	1,0	1,0	10,0	1,0	1,0
		0,4	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,7	-2,8	1,0	-30	-173
			-14	-0,5	0,6	0,8	0,9	0,9	-9,0	0,9	0,9
		0,5	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,3	-1,8	0,9	-20	-115
			-23	-3,5	0,1	0,6	0,7	0,7	6,0	0,7	0,7
		0,6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,4	0,7	-10	-64
			-36	6,8	-1,8	-0,4	0,0	0,2	-2,3	0,4	0,4
	0,9	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,6	-2,8	-8,3	-23	-74	-387
			-2,5	0,2	0,8	1,0	1,0	1,0	-	-	-
		0,3	0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,6	-5,3	-15	-48	-266
			-6,3	-0,1	0,8	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
		0,4	0,2	0,2	0,2	0,0	-1,0	-3,5	-11	-36	-206
			-12	-0,1	0,7	0,8	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9
		0,5	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,3	-2,0	-7,0	-24	-137
			-19	-2,5	0,2	0,6	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7
		0,6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,4	-2,3	-12	-80
			-33	-5,9	-1,4	-0,2	0,1	0,2	0,3	0,4	0,4

α , grad	S_a/S	S_{yo}/S	Q_{yo}/Q								
			0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9
30	1,0	0,2	0,2	0,2	-0,4	-1,8	-5,2	-13,0	-34	-105	-540
			-2,0	0,3	0,9	1,0	1,0	1,0	-	-	-
			0,2	0,2	0,0	-0,8	-3,2	-8,4	-23	-71	375
		0,3	-5,4	0,2	0,9	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
			0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,6	-5,0	-14	-47	-255
			-10	-0,4	0,7	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9
		0,4	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,5	-2,2	-8,0	-26	-155
			-15	-1,4	0,3	0,6	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7
			0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,5	-2,8	-15	-100
		0,6	-30	-50	-1,1	-0,1	-0,1	0,3	0,4	0,4	0,4

Eslatma. Yuqorigi qatorda oqimning kirishdagi qarshilik koeffitsiyenti ξ_a , pastki qatorda yon tomondagi oqimning qarshilik koeffitsiyenti ξ_{yo} keltirilgan.

Qarshilik koeffitsiyenti troynikning asosiy va yon tomonlari yuzalarning nisbati, asosiy va yon tomonlardagi havo sarfining nisbati va bukilish burchagi asosida 4-jadvaldan aniqlanadi:

$$S_a/S = 0,0989/0,0989 = 1,0;$$

$$S_{yo}/S = 0,0201/0,0989 = 0,2;$$

$$Q_{yo}/Q = 1200/6000 = 0,2;$$

$$\alpha = 30^\circ, \xi_a = 0,2.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 8-ustuniga yoziladi.

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_a = 0,11 + 0,15 + 0,2 = 0,46.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotilgan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \Sigma \xi \cdot H_d = 0,46 \cdot 110 = 50,6 \text{ Pa},$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik koeffitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Yo'qotilgan bosimlar yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_T + H_{sh} = 8,2 + 50,6 = 58,8 \text{ Pa}.$$

Mashina va havo o'tkazgichning yo'qotilgan bosimlari yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi:

$$H_{y.b} = H_m + H_y = 700 + 58,8 = 758,8 \text{ Pa.}$$

Qolgan hamma qismlarda yo'qotilgan bosim ham shu usulda (1 m havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimni topish usuli) hisoblanadi.

Yon qismlarni hisoblash

a6 qism:

Mashinaning havo sarfi

$$Q = 300 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi

$$v = 10,6 \text{ m/s}$$

Havo o'tkazgichning diametri

$$D = 100 \text{ mm}$$

Dinamik bosim

$$H_d = 69 \text{ Pa}$$

1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim

$$R = 16 \text{ Pa/m}$$

a6 qismdagi havo o'tkazgichning uzunligi aniqlanadi (41-rasm):

$$\Sigma l = l_1 + l_2 = 0,2 + 2,6 = 2,8 \text{ m.}$$

Konfuzorning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (2-jadval):

$$h_k/D = 180/100 = 1,8$$

$$\text{tg} \alpha/2 = \alpha - D/2 \cdot h_k = 120 - 100/2 \cdot 180 = 0,57$$

$$\alpha = 5^\circ; \xi_k = 0,43.$$

Tirsakning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (3-jadval):

$$\alpha = 90^\circ; R = 1,5 D; \xi_T = 0,18.$$

Troynikning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (4-jadval):

$$S_k/S = 0,0078/0,0153 = 0,5$$

$$S_y/S = 0,0078/0,0153 = 0,5$$

$$Q_y/Q = 300/600 = 0,5$$

$$\alpha = 30^\circ, \xi_a = 0,0.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_a = 0,43 + 0,18 + 0,0 = 0,61.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotiladigan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \xi_k \cdot H_d = 0,61 \cdot 69 = 42,1 \text{ Pa,}$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik koeffitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Yo'qotilgan bosimlar yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yozib qo'yiladi:

$$H_y = H_k + H_{sh} = 44,8 + 42,1 = 86,9 \text{ Pa.}$$

Mashina va havo o'tkazgichdagi yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi.

α , grad	S_a/S	S_{yo}/S	Q_{yo}/Q									
			0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	
30	1,0	0,2	0,2	0,2	-0,4	-1,8	-5,2	-13,0	-34	-105	-540	
			-2,0	0,3	0,9	1,0	1,0	1,0	-	-	-	
		0,3	0,2	0,2	0,0	-0,8	-3,2	-8,4	-23	-71	375	
			-5,4	0,2	0,9	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	
		0,4	0,2	0,2	0,1	-0,2	-1,6	-5,0	-14	-47	-255	
			-10	-0,4	0,7	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	
		0,5	0,2	0,2	0,2	0,0	-0,5	-2,2	-8,0	-26	-155	
			-15	-1,4	0,3	0,6	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	
		0,6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	-0,5	-2,8	-15	-100	
			-30	-50	-1,1	-0,1	-0,1	0,3	0,4	0,4	0,4	

Eslatma. Yuqorigi qatorda oqimning kirishdagi qarshilik koeffitsiyenti ξ_a , pastki qatorda yon tomondagi oqimning qarshilik koeffitsiyenti ξ_{yo} keltirilgan.

Qarshilik koeffitsiyenti troynikning asosiy va yon tomonlari yuzalarning nisbati, asosiy va yon tomonlardagi havo sarfining nisbati va bukilish burchagi asosida 4-jadvaldan aniqlanadi:

$$S_a/S = 0,0989/0,0989 = 1,0;$$

$$S_{yo}/S = 0,0201/0,0989 = 0,2;$$

$$Q_{yo}/Q = 1200/6000 = 0,2;$$

$$\alpha = 30^\circ, \xi_a = 0,2.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 8-ustuniga yoziladi.

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_a = 0,11 + 0,15 + 0,2 = 0,46.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotilgan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \Sigma \xi \cdot H_d = 0,46 \cdot 110 = 50,6 \text{ Pa},$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik koeffitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Yo'qotilgan bosimlar yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_T + H_{sh} = 8,2 + 50,6 = 58,8 \text{ Pa}.$$

Mashina va havo o'tkazgichning yo'qotilgan bosimlari yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi:

$$H_{y.b} = H_m + H_y = 700 + 58,8 = 758,8 \text{ Pa.}$$

Qolgan hamma qismlarda yo'qotilgan bosim ham shu usulda (1 m havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimni topish usuli) hisoblanadi.

Yon qismlarni hisoblash

a6 qism:

Mashinaning havo sarfi

$$Q = 300 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi

$$v = 10,6 \text{ m/s}$$

Havo o'tkazgichning diametri

$$D = 100 \text{ mm}$$

Dinamik bosim

$$H_d = 69 \text{ Pa}$$

1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim

$$R = 16 \text{ Pa/m}$$

a6 qismdagi havo o'tkazgichning uzunligi aniqlanadi (41-rasm):

$$\Sigma l = l_1 + l_2 = 0,2 + 2,6 = 2,8 \text{ m.}$$

Konfuzorning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (2-jadval):

$$h_k/D = 180/100 = 1,8$$

$$\text{tg} \alpha / 2 = \alpha - D/2 \cdot h_k = 120 - 100/2 \cdot 1,8 = 0,57$$

$$\alpha = 5^\circ; \xi_k = 0,43.$$

Tirsakning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (3-jadval):

$$\alpha = 90^\circ; R = 1,5 D; \xi_T = 0,18.$$

Troynikning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (4-jadval):

$$S_3/S = 0,0078/0,0153 = 0,5$$

$$S_{yo}/S = 0,0078/0,0153 = 0,5$$

$$Q_{yo}/Q = 300/600 = 0,5$$

$$\alpha = 30^\circ; \xi_a = 0,0.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_a = 0,43 + 0,18 + 0,0 = 0,61.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotiladigan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \xi_k \cdot H_d = 0,61 \cdot 69 = 42,1 \text{ Pa,}$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik koeffitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Yo'qotilgan bosimlar yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yozib qo'yiladi:

$$H_y = H_i + H_{sh} = 44,8 + 42,1 = 86,9 \text{ Pa.}$$

Mashina va havo o'tkazgichdagi yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi.

$$H_{y.b} = H_m + H_y = 140 + 86,9 = 226,9 \text{ Pa.}$$

аБ qism

Mashinaning havo sarfi

Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi

Havo o'tkazgichning diametri

Dinamik bosimi

1 metr uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim

Havo o'tkazgichning uzunligi

$$Q = 300 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$v = 10,6 \text{ m/s}$$

$$D = 100 \text{ mm}$$

$$H_d = 69 \text{ Pa}$$

$$R = 16 \text{ Pa/m}$$

$$l = 0 \text{ m (41-rasm)}$$

Konfuzorning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (2-jadval):

$$h_k/D = 180/100 = 1,8;$$

$$\operatorname{tg} \alpha/2 = a - D/2 \cdot h_k = 120 - 100/2 \cdot 180 = 0,57,$$

$$\alpha = 5^\circ, \quad \xi_{y_o} = 0,43.$$

Tirsakning qarshilik koeffitsiyenti 3-jadvaldan aniqlanadi:

$$\alpha = 60^\circ, \quad R = 1,5 D, \quad \xi_T = 0,14.$$

Troynikning qarshilik koeffitsiyenti 4-jadvaldan aniqlanadi:

$$S_a/S = 0,0078/0,0153 = 0,5;$$

$$S_{y_o}/S = 0,0078/0,0153 = 0,5;$$

$$Q_{y_o}/Q = 300/600 = 0,5;$$

$$\alpha = 30^\circ, \quad \xi_{y_o} = 0,5.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_{y_o} = 0,43 + 0,14 + 0,5 = 1,07.$$

Havo o'tkazgichning shaklli qismlarida yo'qotiladigan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yozib qo'yiladi:

$$H_{shk} = \Sigma \xi \cdot H_d = 1,07 \cdot 69 = 73,9 \text{ Pa.}$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shaklli qismlarning qarshilik koeffitsiyentlarini yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Yo'qotilgan bosimlar yig'indisi aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_t + H_{sh} = 0 + 73,9 = 73,9 \text{ Pa.}$$

Mashina va havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi:

$$H_{y.b} = H_m + H_y = 140 + 73,9 = 213,9 \text{ Pa.}$$

жи, ди, иг qismlarda yo'qotilgan bosim аБ, бВ, вГ qismlarning bosimiga teng, chunki ular simmetrik joylashgan.

rB qism

Mashinaning havo sarfi	$Q = 1200 \text{ m}^3/\text{soat}$
Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi	$v = 16,6 \text{ m/s}$
Havo o'tkazgichning diametri	$D = 160 \text{ mm}$
Dinamik bosimi	$H_d = 168 \text{ Pa}$
1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim	$R = 20,6 \text{ Pa/m}$

Havo o'tkazgichning uzunligi aniqlanadi (41-rasm):

$$\Sigma l = l_1 + l_2 = 4,2 + 3,3 = 7,5 \text{ m.}$$

Tirsakning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (3-jadval):

$$\xi_t = 0,18, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 1,5D$$

$$\xi_{t_2} = 0,18, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 1,5D$$

Troynikning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (4-jadval):

$$S_a/S = 0,0989/0,0989 = 1;$$

$$S_{yo}/S = 0,0201/0,0989 = 0,2;$$

$$Q_{yo}/Q = 1200/6000 = 0,2;$$

$$\alpha = 300, \quad \xi_{yo} = 0,5.$$

Qarshilik koeffitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_{yo} = 0,18 + 0,18 + 0,3 = 0,66.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotiladigan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \Sigma \xi \cdot H_d = 0,66 \cdot 168 = 110,9 \text{ Pa,}$$

bu yerda $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik koeffitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).


To'g'ri va shaklli havo quvurida yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_i + H_{sh} = 154,5 + 110,9 = 265,4 \text{ Pa.}$$

Yon havo o'tkazgichlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi:

$$H_{y,b} = H_m + H_y = 277,3 + 265,4 = 542,7 \text{ Pa.}$$

Asosiy magistraldagi qarshilik bosimi $H = 758,8 \text{ Pa}$. Yon rB qismdagi qarshilik bosimi $H_{y,b} = 542,7 \text{ Pa}$. Asosiy va yon qismlarda yo'qotilgan bosimlar teng bo'lishi kerak. Shuning uchun bosimlar farqi aniqlanadi va 42-rasmdagi bir tomonlama diafragma tanlanadi.



42-rasm. Bir tomonlama diafragma.

$$\Delta H = H_1 - H_2 = 758,8 - 542,7 = 216 \text{ Pa.}$$

Diafragmaning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (42-rasm):

$$\xi_{yo} = \Delta H / H_d = 216 / 168 = 1,29;$$

$$a/D = 0,45; a = 0,45 \cdot 160 = 72 \text{ mm.}$$

Asosiy magistraldagi qismlar hisobining davomi.

БВ qism

Bu qismda ПЦИ — 15,6 filtri joylashgan.

Uning qarshilik koeffitsiyenti $N_f = 1100 \text{ Pa (2)}$.

ЕГ qism

Mashinaning havo sarfi

$$Q = 6300 \text{ m}^3/\text{soat.}$$

Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi

$$v = 11 \text{ m/s.}$$

Havo o'tkazgichning diametri

$$D = 450 \text{ mm.}$$

Dinamik bosimi

$$H_d = 74 \text{ Pa.}$$

1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim

$$R = 2,6 \text{ Pa/m}$$

Havo o'tkazgichning uzunligi aniqlanadi (41-rasm):

$$\Sigma l = l_1 + l_2 = 1,5 + 2,4 = 3,9 \text{ m.}$$

Tirsakning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi (3-jadval):

$$\xi_1 = 0,15, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 2D$$

$$\xi_{12} = 0,15, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 2D$$

Ventilatorning kirish teshigiga konfuzor o'rnatiladi va konfuzorning qarshilik koeffitsiyenti aniqlanadi. $\xi_k = 0,2$ (2-jadval):

$$h_k/D = 300/450 = 0,7;$$

$$\operatorname{tg} \alpha/2 = a - D/2 \cdot h_k = 350 - 450/2 \cdot 300 = 0,18$$

$$\alpha = 20^\circ$$

Qarshilik ko'effitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_k + \xi_T + \xi_{T2} = 0,15 + 0,15 + 0,2 = 0,5.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotiladigan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \Sigma \xi \cdot H_d = 0,5 \cdot 74,1 = 37 \text{ Pa.}$$

bu yerda $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik ko'effitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Havo o'tkazgichning to'g'ri va shakldor qismlarida yo'qotilgan bosimlar aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_t + H_{sh} = 10,9 + 37 = 47,9 \text{ Pa.}$$

Asosiy havo o'tkazgichlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi:

$$H_{yb} = H_m + H_y = 1858,7 + 47,9 = 1906,7 \text{ Pa.}$$

ДЕ qism

ДЕ qismda P3-БВ-Ц5-37-5,3 ventilyatori joylashgan. Ventilatorning qarshiligi uning foydali ish ko'effitsiyentida hisobga olingan.

ЕИ qism

Havo o'tkazgichdagi havo sarfi	$Q = 6600 \text{ m}^3/\text{soat.}$
Havo o'tkazgichdagi havoning tezligi	$v = 11 \text{ m/s.}$
Havo o'tkazgichning diametri	$D = 450 \text{ mm.}$
Dinamik bosimi	$H_d = 74 \text{ Pa.}$
1 m uzunlikdagi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim	$R = 2,6 \text{ Pa/m.}$

Havo o'tkazgichning uzunligi aniqlanadi (41-rasm):

$$\Sigma l = l_1 + l_2 + l_3 = 2,2 + 1,6 + 6,6 = 10,6 \text{ m.}$$

Tirsakning qarshilik ko'effitsiyenti aniqlanadi (3-jadval):

$$\xi_{T1} = 0,15, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 2 D$$

$$\xi_{T2} = 0,15, \quad \alpha = 90^\circ, \quad R = 2 D$$

Ventilyatorning chiqish teshigidagi diffuzorning qarshilik ko'effitsiyenti 5-jadvaldan aniqlanadi $\xi_d = 0,06$.

$$n = S_2/S_1 = 0,0989/0,0618 = 1,6; \alpha = 10^\circ,$$

bu yerda S_1 va S_2 — diffuzorning kirish va chiqish teshiklari yuzi, m^2 .

Havo o'tkazgichdan chiqish joyidagi diffuzorning qarshilik ko'effitsiyenti 5-jadvaldan aniqlanadi: $\xi_{d2} = 0,14$.

$$n = S_2/S_1 = 0,0989/0,0618 = 1,5; \alpha = 90^\circ.$$

5-jadval

Tenglashtirilgan oqimlarda diffuzorning qarshilik ko'effitsiyenti

n	Kesimi	α , grad							
		5	10	15	20	25	30	40	50
1,5	Dumaloq	0,05	0,04	0,05	0,06	0,08	0,10	0,14	0,17
	To'rtburchak	0,06	0,06	0,08	0,11	0,15	0,19	0,27	0,32
2,0	Dumaloq	0,08	0,08	0,11	0,15	0,20	0,24	0,35	0,42
	To'rtburchak	0,10	0,13	0,20	0,27	0,37	0,57	0,67	0,81
2,5	Dumaloq	0,09	0,11	0,15	0,21	0,28	0,35	0,50	0,60
	To'rtburchak	0,13	0,18	0,28	0,39	0,53	0,67	0,97	1,15
3,0	Dumaloq	0,10	0,13	0,18	0,25	0,34	0,43	0,61	0,73
	To'rtburchak	0,15	0,22	0,34	0,47	0,65	0,81	1,18	1,41
4,0	Dumaloq	0,12	0,16	0,23	0,31	0,43	0,53	0,77	0,91
	To'rtburchak	0,17	0,27	0,42	0,59	0,81	1,02	1,48	1,76

Qarshilik ko'effitsiyentlarining yig'indisi aniqlanadi:

$$\Sigma \xi = \xi_D + \xi_T + \xi_{T2} + \xi_{D2} = 0,06 + 0,15 + 0,15 + 0,14 = 0,5.$$

Havo o'tkazgichning shakldor qismlarida yo'qotilgan bosim hisoblanadi va 6-jadvalning 10-ustuniga yoziladi:

$$H_{sh} = \Sigma \xi \cdot H_d = 0,5 \cdot 74,1 = 37 \text{ Pa},$$

bu yerda: $\Sigma \xi$ — shakldor qismlarning qarshilik ko'effitsiyentlari yig'indisi; H_d — havo o'tkazgichdagi dinamik bosim (17-ilova).

Havo o'tkazgichning to'g'ri va shakldor qismlarida yo'qotilgan bosimlar aniqlanadi va 6-jadvalning 11-ustuniga yoziladi:

$$H_y = H_T + H_{sh} = 24,6 + 37 = 61,6 \text{ Pa}.$$

Asosiy havo o'tkazgichlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi hisoblanadi va 6-jadvalning 12-ustuniga yoziladi.

$$H_{y,b} = H_y + H_y = 1906,7 + 61,6 = 1968,3 \text{ Pa}.$$

Aspiratsiya tarmoqlarini hisoblash natijalari

Belgilanish	Q, m/soat	U, m/s	D, mm	R, Pa/m	L, m	R _l , Pa	Σξ	H _d , Pa	H _{sh} , Pa	H _y , Pa	Σ H _y , Pa	Joylardagi qarshilik ko'effitsiyenti											
												Konfuzor					Tirsak			Troynik			
												h/d	α	ξ	α	R	ξ ₁	α	ξ ₂	ξ ₃	α	ξ ₄	ξ ₅
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	
Asosiy magistral uchastkalardagi																							
OA	Aspirator P3-BA6											700											
AB	4800	13,5	355	5,1	1,6	8,2	0,46	110	50,6	58,8	758,8	1,3	45	0,09	90	2,0	0,15	30	1,0	0,2	0,2	0,2	
BB	Filtrning qarshiligi											1100											
BГ	6300	11,0	450	1,5	3,9	10,1	0,5	75,6	37,8	47,9	1906,7	0,7	20	0,2	90	2,0	0,30	-	-	-	-	-	
DE	6300	11,4	450	2,8	8,8	24,6	0,5	75,6	37,8	62,4	1968,3	1,5	10	0,06	90	2,0	0,30	-	-	-	-	-	
												1,5	40	0,14									
Asosiy magistralda jami yo'qotilgan bosim, 1968,3 Pa																							
Yon qismlar																							
oa	P3-БМО-6 №1											140	140										
ab	300	10,6	100	19	2,8	44,8	0,61	69	42,1	86,9	226,9	1,5	5	0,43	90	1,5	0,18	30	0,5	0,5	0,5	0	
бг	600	11,0	140	11	2,7	29,7	0,28	74	20,7	50,4	277,3	-	-	-	90	1,5	0,18	30	0,5	0,5	0,5	0,1	
гв	1200	16,6	160	20	7,5	154	0,66	168	119	265	542,3	-	-	-	90	1,5	0,36	30	1,0	0,2	0,2	0,3	
гб	Diafragma qarshiligi											1,29											
								108	216	216	758,3	x-88m											
ob	P3-БМО-6 №2											140											
нб	300	10,6	100	16	0	0	1,07	69	73,9	73,9	213,9	1,5	5	0,43	90	1,5	0,14	30	0,5	0,5	0,5	0,5	

8-§. ASPIRATSIYA TARMOQLARI UCHUN VENTILATORNI UZIL-KESIL TANLASH

Ventilatorning havo sarfi $Q = 6600 \text{ m}^3/\text{soat}$. Ventilatorning qarshilik bosimi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_v = H_t \cdot 1,1 = 1968 \cdot 1,1 = 2165,1 \text{ Pa.}$$

Ventilatorning aniqlangan havo safi (Q) va qarshilik bosimi (H_v) asosida 15-ilovadagi ventilatorning tavsifidan P3-ББ-И5-37-5,3 ventilatori tanlanadi. Uning foydali ish koeffitsiyenti $\eta = 0,71$. Ventilatorning quvvati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_v = Q_v \cdot H_v / 3600 \cdot 1000 \cdot \eta_v = \\ = 6600 \cdot 2165,1 / 3600 \cdot 1000 \cdot 0,71 = 5,6 \text{ kW.}$$

Ventilator elektr dvigatelining quvvati aniqlanadi.

$$N_e = N_v / \eta_v = 1,15 \cdot 5,6 / 0,97 = 6,63 \text{ kW,}$$

bu yerda: η_v — ventilatordagi podshipnikning foydali ish koeffitsiyenti.

Ventilatorning ishlashi uchun 15-ilovadan 4A132N12УПY3 markali elektr dvigateli tanlanadi (2).

Elektr dvigatelning quvvati $N = 11,0 \text{ kW}$.

Tekshirish uchun savollar

1. Havo o'tkazgichlarni hisoblash uchun qanday tayyorgarlik ishlari talab qilinadi?
2. Havo o'tkazgichning diametri qanday aniqlanadi?
3. To'g'ri va shakldor havo o'tkazgichlarda yo'qotilgan bosimni aniqlash formulasini yozing.
4. Shakldor qismlarini qarshilik koeffitsiyentlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qaysi omillarga bog'liq?
5. Magistral yo'nalishidagi va yon tarmoqlarni ta'riflab bering.
6. Havo o'tkazgichlardagi havo sarfi qanday aniqlanadi?
7. Havo almashtirish qurilmalari tarmoqlarining biror-bir qismida yo'qotilgan bosim qanday aniqlanadi?
8. Yon qism tarmoqlaridagi bosimlar miqdorini tenglashtirishning qanaqa usullari bor?
9. Havo almashtirish qurilmalariga ventilator tanlash uchun qanday qoidalardan foydalaniladi?
10. Ventilatorlarning quvvati qaysi formula bilan aniqlanadi?

VII BOB. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Sochiluvchan va donador materiallarni (don, qum, sement, un, kepek, chiqindi va b.) havo oqimi bilan ko'chirish pnevmatik tashish deyiladi.

Pnevмотransport materiallarni turli yo'nalishlarda qo'zg'almas zich (germetik) quvurlar orqali uzatadi.

Pnevмотransport qurilmalarining asosiy vazifasi havoni harakatlantirish hisoblanadi. Bunda qurilmaning boshi va oxiridagi havo bosimlar o'rtasida farq havoni harakatga keltiradi.

Pnevмотransport qurilmalarining quvvati 100 tonnadan ortiq bo'lishi, mahsulotni bir necha kilometr masofaga ko'chirishi va 100 metrdan yuqori balandlikka ko'tarishi mumkin.

Don va donni qayta ishlash mahsulotlarini ko'chirishda pnevmotransport mexanik transport qurilmasiga nisbatan ancha qulay va foydalidir. Pnevмотransport qurilmalaridan donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida foydalanish ishlab chiqarish unumdorligini oshirish omillarining biridir.

Donni qabul qilish korxonalari va tegirmonlarda donni tashishda, kemalardan, vagonlardan donni tushirishda, omborlardan tashishda, qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilarni olingan joyidan qayta ishlash va saqlash joyigacha ko'chirishda pnevmotransportdan foydalaniladi. Pnevмотransport qurilmalari tegirmon, yorma va omixta yem korxonalarida sex ichidagi va sexlararo transport vositasi sifatida ham ishlatiladi.

Pnevмотransport qurilmalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- donni tushirishni to'liq mexanizatsiyalashtiradi;
- ortish va tushirish ishlarida sanitariya-gigiyenik mehnat sharoitini yaxshilaydi;
- kemalardan donni tushirishni tezlashtiradi, tushirish narxini arzonlashtiradi va mehnat unumdorligini oshiradi;
- istalgan ob-havoda donni kema va vagonlardan tushiradi;
- donning sifatini yaxshilaydi, chunki pnevmatik ko'chirish jarayonida don qisman quriydi va changsizlanadi;

— pnevmotransport qurilmalarining hamma elektr dvigatellarini avtomatik blokirovka qilish va mexanizmlarni markazdan boshqarishni tashkil qiladi;

— mehnat sharoiti xavfsizligini oshiradi.

Pnevmotransport qurilmalarining asosiy kamchiligi — mexanik transportga nisbatan ko'proq elektr energiyasi sarf qilishdir.

Tegirmon, yorma va omixta yem korxonalarida to'liq pnevmotransport qurilmalari bilan jihozlanishi natijasida ishlab chiqarishning sanitariya holati va ish o'rinlarining yoritilishi yaxshilanadi, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish sharoiti ta'minlanadi, mehnat unumdorligi oshadi va ishlab chiqarish maydonlaridan to'laroq foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Tegirmonning yanchish bo'limida pnevmotransport jo'vali dastgohlar va boshqa texnologik uskunalarning ishlashini yaxshilaydi (jo'valarni va maydalangan don mahsulotlarini sovitadi, dastgohlarni changsizlantiradi, valli dastgohlarda havodagi namlikni suvga aylanishidan va jo'valar yuzasida un sirachi hosil bo'lishidan saqlaydi).

Tegirmon va yorma korxonalarining donni tayyorlash bo'limi ichki pnevmatik transport havodan nafaqat donni ko'chirishda, balki dondan yengil aralashmalarni pnevmoseparatorlarda tozalashda va ayni vaqtda texnologik uskunalarni aspiratsiya qilishda foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, donlarning po'stini qo'shimcha ajratadi va kuldorligini kamaytiradi.

Yorma va omixta yem korxonalarida pnevmotransport qurilmalaridan foydalanish ijobiy natijalar bermoqda. Masalan, tariq donini tayyorlash va qayta ishlash texnologik jarayonlarida pnevmotransport qurilmalari tariq donini ko'chirish bilan bir vaqtda uskunalarni aspiratsiya qiladi va asosiy texnologik operatsiyalardan biri hisoblangan tariq donini ajratishni ham bajaradi. Omixta yem ishlab chiqarishda ba'zi operatsiyalarda (donlar va chiqindilarni tozalash, donlarning po'stini ajratish va h.) pnevmotransport qurilmalarini ishlatish muhim ahamiyatga ega.

Donni qabul qilish korxonalarida tegirmonlarda pnevmotransport qurilmalari qo'llanilganda energiya sarfi mexanik transportga nisbatan ancha ko'p bo'ladi. Tegirmonda un ishlab chiqarish uchun iste'mol qilinadigan elektr energiyasining 30—40 foizi pnevmotransport qurilmalariga to'g'ri keladi.

Pnevmotransport qurilmalari uchun talab qilinadigan elektr energiyasi sarfini kamaytirish mumkin. Buning uchun mahsulot o'tkazgichdagi havo oqimi tezligini donni va maydalangan don

mahsulotlari turg'un tashilishini ta'minlaydigan darajada kamaytirish. pnevmotarmoqni oqilona joylashtirish, tarmoqda qo'shimcha havo so'rilishining oldini olish, havoni tozalash uchun foydali ish koeffitsiyenti katta bo'lgan filtrlar va havo haydovchi mashinalardan foydalanish kerak.

2-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING TASNIFI

Pnevmotransport qurilmalarining quyidagi xillari bor:

— mahsulot o'tkazgichning boshi va oxiridagi bosimlar farqining tashkil qilish usuliga qarab so'ruvchi, haydovchi va aralash pnevmotransport qurilmalari. So'ruvchi qurilmalarning mahsulot o'tkazgichida havo bosimi atmosfera bosimidan kam, haydovchi qurilmalarda esa havo bosimi atmosfera bosimidan yuqori bo'ladi. So'ruvchi va haydovchi qurilmalar birgalikda joylashtirilib aralash pnevmotransport qurilmasi hosil qilinadi;

— pnevmotransport qurilmasining boshi va oxiridagi bosimlar farqiga ko'ra — past, o'rtacha va yuqori bosimli qurilmalar. Past bosimli (5000 Pa gacha) qurilmalar uchun yuqori bosimli ventilatorlar qo'llaniladi. O'rtacha bosimli (10000 Pa dan gacha) qurilmalar uchun yuqori bosimli ventilatorlar yoki turbohavo haydovchi mashinalar ishlatiladi. Yuqori bosimli (10000 Pa dan yuqori) qurilmalar uchun kompressor yoki vakuumnasoslar qo'llaniladi;


— pnevmotransport qurilmasidagi mahsulot o'tkazgichlar miqdoriga qarab — oddiy qurilmalar (bitta mahsulot o'tkazgichli) va tarmoqlangan qurilmalar (ikkita va bundan ortiq mahsulot o'tkazgichli);

— pnevmatik uskunalarni o'rnatish usuli bo'yicha — (qo'z-g'almas statsionar), ko'chma va suzuvchi qurilmalar.


Pnevmotransport qurilmasi uskunalarining joylashuviga ko'ra — sex ichidagi va sexlararo (mahsulot bir sexda qabul qilinib boshqa sexda tushiriladi) qurilmalarga bo'linadi.

3-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING SXEMALARI


So'ruvchi pnevmotransport qurilmalari ko'p hollarda donni dengiz va daryo kemalaridan hamda vagon va omborlardan tushirib olish uchun ishlatiladi. Tegirmon, yorma va omixta yem korxonalarida ham don va boshqa mahsulotlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun so'ruvchi pnevmotransport qurilmalari ishlatiladi (43, 44, 45-rasmlar).



43-rasm. Kemalardan donni tushiradigan so'ruvchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — sopló; 2 — mahsulot quvuri; 3 — bo'shatgich; 4 — shluзли zatvor;
 5 — havo quvuri; 6 — siklon; 7 — filtr; 8 — havo haydovchi mashina.



44-rasm. So'ruvchi pnevмотransport qurilmasining sxemalari:
 a — changli havo ikki marta ketma-ket tozalanadigan pnevмотransport qurilmasi;
 b — changli havo bir marta faqat siklonda tozalanadigan qurilma;
 d — changli havo faqat filtrda tozalanadigan qurilma; 1 — don va boshqa mahsulotlarni
 qabul qiluvchi uskuna; 2 — mahsulot quvuri; 3 — bo'shatgich; 4 — shluзли zatvor;
 6 — siklon; 7 — filtr; 8 — yuqori bosimli ventilator; 9 — chang ajratgich.



45-rasm. Yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlardagi so'ruvchi pnevmotransport qurilmasining sxemasi:


- 1 — o'rtacha bosimli ventilator; 2 — filtr-siklon; 3 — yuqori bosimli ventilator;
4 — mahsulot bo'shatgichlar; 5 — vertikal mahsulot quvurlari;
6 — gorizontal mahsulot quvurlari; 7 — qabul qiluvchi uskuna; 8 — entoleytor.

Don uchun so'ruvchi pnevmotransport qurilmasining sxemasi 45-rasmda keltirilgan. Kemalardagi don soplo 1 yordamida so'rib olinadi va qo'zg'aluvchi mahsulot quvuri 2 orqali bo'shatgich 3 ga uzatiladi va u yerda don havodan ajratiladi. Shluzli o'tkazgich 4 orqali don qabul bunkeriga uzatiladi va keyin transportyor orqali talab qilingan joyga yuboriladi. Changli havo havo o'tkazgich 5 orqali siklon 6 ga uzatiladi va havodan ajratilgan chang shluzli zatvor orqali tashqi bunkeriga yuboriladi. Havo ikkinchi marta tozalash uchun filtr 7 ga uzatiladi.

44-rasmda tegirmonning donni maydalash bo'limida maydalangan don mahsulotlarini ko'chirish uchun qo'llaniladigan so'ruvchi pnevmotransport qurilmasining sxemalari keltirilgan.

44-a rasmdagi sxemada maydalangan don mahsulotlari har xil tizimlardan qabul qiluvchi uskuna 1 ga yo'naladi. Keyin mahsulotlar mahsulot quvuri 2 orqali mahsulot bo'shatgich 3 ga keladi va havodan ajraladi. Shluzli zatvor 4 orqali mahsulot maydalash sxemasi asosida boshqa uskunalariga yo'l oladi. Changli havo siklonlar 6 da changdan tozalanadi va ikkinchi marta filtr 7 da tozalangan havo ventilator 8 yordamida atmosferaga chiqarib tashlanadi yoki bino ichidagi havoni resirkulatsiya qilish uchun yana bir marta chang ajratgich 9 (yuvuvchi kamera yoki konditsioner)ga uzatiladi.

44-d rasmdagi pnevmotransport qurilmasida changli havo foydali ish koeffitsiyenti juda yuqori bo'lgan ventilator va yuqori vakuumli filtrlarda tozalanadi. Bunda havoning samarali tozalanishi



46-rasm. Sexlararo pnevмотransport qurilmasining sxemasi:

1 — qabul qiluvchi uskuna; 2 — shluзли ta'minlagich; 3 — havo klapani; 4 — bunker; 5 — havo ventilatori; 6 — havo o'tkazgich; 7 — shluзли zatvor; 8 — batareyali siklon; 9 — bo'shatgich; 10 — mahsulot o'tkazgich

ta'minlashidan tashqari, pnevмотransport qurilmalariga sarf qilinadigan energiya miqdori ham ancha kamayadi.

Sexlararo so'ruvchi pnevмотransport qurilmasi tegirmon, yorma korxonasi va elevatordan kepak, ozuqa uni va qo'shimcha mahsulotlarni omixta yem korxonasiga yoki saqlash sexiga tashishda qo'llaniladi (46-rasm).

So'ruvchi pnevмотransport qurilmalarining afzalliklariga quyidagilar kiradi:


- bir vaqtning o'zida bir nechta joydan mahsulotni so'rib oladi;
- mahsulot qabul qiluvchi uskunalarining tuzilishi oddiy va zichlashni talab qilmaydi chunki ular ishlaganda chang chiqmaydi.

Ammo so'ruvchi pnevмотransport qurilmalarini loyihalashda shuni hisobga olish kerakki, ular uchun katta siyraklanish ostida bo'luvchi bo'shatkichlar va filtrlar qo'llaniladigan bo'lsa, ular maxsus chiqarish zatvorlari bilan ta'minlanishi shart, bu esa sarfxarajatlarni oshiradi. Bundan tashqari, so'ruvchi pnevмотransport qurilmalarining uzunligi chegaralangan, ya'ni mahsulot o'tkazgichning boshi bilan havo haydovchi mashinaning so'ruvchi patrubi orasida 1 atmosferadan ortiq bosimlar farqini hosil qilish mumkin emas.

Haydovchi pnevмотransport qurilmalarida mahsulot bir joydan olinadi va bir necha joyda bo'shatilishi mumkin. Ular yuqori




47-rasm. Haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
1 — kompressor yoki ventilator, 2 — bunker, 3 — shluзли zatvor, 4 — havo o'tkazgich, 5 — bo'shatgich, 6 — batareyali siklon.




48-rasm. Chiqindi, omixta yem, kepak, maydalangan va butun donni ko'chirish uchun sexlararo haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — havo haydovchi mashina; 2 — qabul qiluvchi uskuna; 3 — shluзли zatvor;
 4 — bunker; 5 — mahsulot quvuri; 6 — bo'shatgich; 7 — filtr;
 8 — havo quvuri; 9 — ventilator.

ortiqcha bosimda ishlaydi. Shuning uchun ular yuqori unumdorlikni ta'minlaydi va mahsulotni uzoq masofaga ko'chira oladi (47, 48, 49, 50 va 51-rasmlar).




49-rasm. Yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda donni ko'chirish uchun qo'llaniladigan haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — havo haydovchi kompressor; 2 — havo o'tkazgich; 3 — qabul qiluvchi uskuna;
 4 — shluзли zatvor; 5 — bunker; 6 — mahsulot o'tkazgich; 7 — bo'shatgich;
 8 — filtr; 9 — o'rtaча bosimli ventilator.



Haydovchi pnevmotransport qurilmasining mahsulotni qabul qiluvchi joylarida ortiqcha bosim eng katta, mahsulotni bo'shatish joylarida esa eng kichik bo'ladi (47-rasm).

47-rasmda chiqindilarni tashishga mo'ljallangan haydovchi pnevmotransport qurilmasining prinsipial sxemasi ko'rsatilgan. Bunda kompressor yoki yuqori bosimli ventilator mahsulot quvuri 4 ga havoni uzatadi. Mahsulot o'tkazgich quvuriga bunkerdan 2 shlzuzli zatvor orqali mahsulot tushadi. Havo va mahsulotdan tashkil topgan



51-rasm. Un tashuvchi mashinadan unni bunkerlarga ko'chirish uchun haydovchi pnevmotransport qurilmasining sxemasi:
1 — havo haydovchi kompressor; 2 — un bunkerlari; 3 — mahsulot quvuri;
4 — bunkerlar; 5 — matoli chang tozalagich.

aralashma mahsulot quvuri orqali bo'shatgich 5 ga kelib tushadi va unda mahsulot havodan ajraladi. Ajralgan mahsulot shluzli (zatvor) orqali tashqariga chiqariladi. Changli havo esa siklon yoki filtr 6 da tozalanadi va tozalangan havo atmosferaga chiqarib tashlanadi.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport qurilmalarining ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
2. Pnevмотransport qurilmalari qanday tasniflanadi?
3. Donni saqlash va qayta ishlash sanoatining qaysi korxonalarida pnevмотransport qurilmalaridan foydalanish mumkin?
4. So'ruvchi pnevмотransport qurilmalari qayerlarda qo'llaniladi?
5. Haydovchi pnevмотransport qurilmalarini qayerlarda ishlatish mumkin? Ularning afzallik va kamchiliklarini ayting.
6. Aralash pnevмотransport qurilmalari qayerlarda qo'llaniladi? Ularning afzallik va kamchiliklarini ayting.

VIII BOB. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING USKUNALARI

1-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QISMLARI

Hamma pnevмотransport qurilmalari asosan quyidagi qismlardan tashkil topadi.

— har xil konstruksiyadagi qabul qiluvchi yoki yuklovchi uskunalar;

— mahsulot o'tkazuvchi quvurlar;

— mahsulotni (don, un, kepak, chiqindi va b.) havodan ajratish uchun bo'shatish qurilmasi;

— havo haydovchi mashinalar yoki ventilatorlar;

— havoni tozalash uchun chang ajratgichlar;

— havo quvurlari;

— aerodinamik shovqin so'ndirgichlar;

— kollektorli va birlashtiruvchi havo o'tkazgichlar;

— mahsulot va havo miqdorini o'lchovchi va rostlovchi moslamalar;

— pnevмотransport qurilmalari uzellarini avtomatlashtirish, signallashtirish, blokirovkalash va nazorat qilish vositalari (drosselli va berkituvchi zadviykalar, klapanlar, ishga tushiruvchi qurilmalar va b.).

Pnevмотransport qurilmalaridagi bu qismlarning aerodinamik qarshiligi kichik bo'lishi, ular zich, ishlatilishi oddiy va ishonchli bo'lishi shart.


2-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QABUL QILUVCHI USKUNALARI

Pnevмотransпорт qurilmalarining qabul qiluvchi uskunalari har xil konstruksiyada bo'lishi mumkin, lekin ular mahsulotni havo bilan bir me'yorda kerakli miqdorda aralashtirishi va bu aeroaralashmani mahsulot quvuriga uzluksiz uzatishi kerak. Mahsulotni tashish uchun kerakli miqdoridagi havo qabul qiluvchi uskunaga qo'shimcha qarshiliksiz kirib turishi shart.

Mahsulot o'tkazgichning so'ruvchi va haydovchi quvurlariga mahsulotni uzatish uchun har xil qabul qiluvchi uskunalar mavjud (52, 53, 54, 55, 56, 57, 58-rasmlar). So'ruvchi pnevmotransport qurilmalari uchun vertikal yoki gorizontaal qabul qiluvchi uskunalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, jo'vali dastgohlardan, chiqit va boshqa mashinalar ichiga o'rnatilgan qabul qiluvchi uskunalar bor.

Haydovchi pnevmotransport qurilmalari uchun shluqli zatvor va ejektor turidagi qabul qiluvchi uskunalar qo'llaniladi. Tegirmonning yanchish bo'limida, maydalangan don mahsulotlarini va yorma korxonasidagi mahsulotlarni tashish uchun «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskunalar ishlatiladi.

52-rasmda «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. Mahsulot patrubok 2 orqali qabul qilgichning silindrsimon qismi 5 ga tushadi. Mahsulot silindrsimon korpus 5 va quvur 4 oralig'iga tushadi. Quvur 4 ning pastki qismi suyri bo'lgani uchun mahsulot va havo aralashmasining harakatiga qarshilik kam bo'ladi. Korpus 5 ning pastki qismiga olinadigan tub 6 o'rnatilgan. Idish tubi bilan quvur 4



52-rasm. «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskuna:


- 1 — klapan; 2 — qabul qiluvchi patrubok;
3 — manjet; 4 — quvur; 5 — silindrsimon korpus; 6 — olinadigan tub.

53-rasm. Uyumdan donni qabul qiluvchi uskuna:

1 — ichki quvur; 2 — tashqi quvur;
3 — yo'naltiruvchi qovurg'alar; 4 — teshiklari
katta g'alvirli konus; 5 — ichki quvurga
payvandlangan panjacha; 6 — rostlovchi bolt.


ning uchi o'rtasidagi oraliqni o'zgartirish mumkin. Quvur 4 orqali mahsulot belgilangan joyga havo yordamida uzatiladi.

53-rasmda uyumdan donni qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. Don uyumi ichiga 300—400 mm chuqurlikda botirilgan soplo mahsulot quvuridagi siyraklanish tufayli donni donlar orasidagi bo'shliqdagi havo bilan birga so'rib oladi. Bir vaqtning o'zida soploga ichki va tashqi quvurlar orasidagi tirqish orqali atmosfera havosi donni topish uchun so'rib olinadi. So'riladigan havoning miqdori ichki quvur 1 va tashqi quvur 2 ni o'zaro haraklantirish orqali rostlanadi.




So'ruvchi pnevмотransport qurilmalarining gorizontaal mahsulot o'tkazuvchi quvuriga donador va changsimon mahsulotlarni qabul qilish uchun «Troynik» turidagi mahsulot qabul qiluvchi uskuna qo'llaniladi.

54-rasmda «Troynik» turidagi qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. «Troynik» uskunasi soddaligi va aerodinamik qarshiligi kichikligi bilan



54-rasm. «Troynik» turidagi gorizontaal qabul qiluvchi uskuna:

1 — qabul qiluvchi patrubok; 2 — qabul qilgich; 3 — kollektor; 4 — to'siq.




55-rasm. Yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlardagi pnevmotransport qurilmalari uchun Y2-БПО markali mahsulot qabul qiluvchi uskunalar:

a — Y2-БПО-7; *b* — Y2-БПО-12; 1 — qabul qiluvchi patrubok; 2 — yoʻnaltiruvchi patrubok; 3 — tirsak.

ajralib turadi. Mahsulot oʻtkazuvchi quvur toʻlib tiqilib qolmasligi uchun uskunaning gorizontal qismi toʻsiq 4 bilan ikki qismga ajratib qoʻyilgan. Toʻsiqning yuqori qismida mahsulot havo bilan harakatlanadi, pastki qismida esa mahsulotni qabul qiluvchi uskunadan mahsulot oʻtkazuvchi quvurga oʻtkazish uchun havo harakatlanadi.


Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida barabanli shluzli qabul qiluvchi uskuna eng koʻp qoʻllaniladi (56-rasm).

Bunkerdan tushayotgan mahsulot baraban 3 ning aylanishi natijasida barabandagi chuqurchalarni toʻldiradi.



56-rasm. Barabanli shluzli qabul qiluvchi uskuna:


1 — bunker; 2 — ortiqcha bosimni chiqarish uchun patrubok; 3 — chuqurchalari boʻlgan baraban; 4 — korpus; 5 — barabanning oʻqi; 6 — mahsulot quvuri.




57-rasm. Mahsulot qabul qiluvchi uskunali po'st ajratuvchi mashina:
1 — parrak; 2 — patrubok; 3 — uchlik.

Barabandagi yuqori bosimni chiqarish uchun patrubok 2 o'rnatilgan. Mahsulot quvur tarmog'iga uzatilishi uchun barabanli shluzli qabul qiluvchi uskunaning quvvati mahsulot o'tkazuvchi quvurning quvvatiga teng bo'lishi shart.

Mashinalarning ichiga o'rnatilgan mahsulot qabul qiluvchi uskunalarining har xil konstruksiyalari mavjud (57 va 58-rasmlar).



58-rasm. Pnevmatik qabul qiluvchi uskuna o'rnatilgan jo'vali dastgoh:
1 — organik shishadan tayyorlangan silindr;
2 — yuqorigi halqa; 3 — pnevmatik qabul qilgichning vertikal quvuri; 4 — pastki halqa qabul qilgich dastasi; 6 — bunker; 7 — qabul qilgich idishi; 8 — qabul qiluvchi quvur.



59-rasm. Ichiga siklon


o'rnatilgan don ajratgich:

1 — yuqorigi konus; 2 — silindr; 3 — kronshiteyn; 4 — shamirli tirsak; 5 — qabul qiluvchi moslama; 6 — qaytaruvchi to'siq; 7 — pastki konus; 8 — changni chiqarish uchun patrubok; 9 — chang ajratgich; 10 — havoni chiqarish uchun patrubok.

3-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING MAHSULOT AJRATGICHLARI

Pnevмотransport qurilmalarida tashiladigan mahsulot va havoni bir-biridan ajratish uchun har xil ajratgichlar: hajmiy ajratgichlar (cho'ktirish kameralari), markazdan qochma ajratgichlar (siklonlar) va pnevmoseparatorlar (59, 60, 61, 62, 63 va 64-rasmlar).

Kema (barja) lardan donni tushirish uchun ishlatiladigan pnevmotransport qurilmalarida hajmiy ajratgichlar qo'llaniladi. Tegirmon va yorma korxonalaridagi pnevmotransport qurilmalarida markazdan



60-rasm. YU turidagi mahsulot ajratgich.


qochma ajratgichlar hamda pnevmoseparatorlar qo'llaniladi. Tegirmonning sex ichidagi pnevmotransport qurilmasini loyihalashda mahsulot ajratgichlar sifatida quyidagilarni o'rnatish tavsiya qilinadi:

— donni tashishda asosan pnevmoseparatorlar, buning iloj bo'lmaganda esa faqat UPK turidagi markazdan qochma ajratgichlar;

— maydalangan don mahsulotlari tashishida asosan UQ va YU-38 turidagi markazdan qochma ajratgichlar;


— chiqindilarni tashishida UQ va UPK turidagi markazdan qochma ajratgichlar.

Ishlab turgan un tegirmonlarini rekonstruksiya qilishda bino qavatlarining balandligi yetarli bo'lsa, maydalangan mahsulotlar uchun UPK xilidagi ajratgichlarni o'rnatishga ruxsat etiladi.



62-rasm. Y2-BPO markali mahsulot ajratgich sxemasi:

1 — nova; 2 — o'zgaruvchi yuza; 3 — kirish patrubogi; 4 — korpus; 5 — chiqish teshigi; 6 — to'siq; 7 — sath signalizatori.





63-rasm. P3-BCD

pnevmostparatorining tuzilishi:


1 — konussimon bunker; 2 — sath signalizatori; 3 — korpus; 4 — darcha; 5 — qabul qiluvchi moslama; 6 — qabul qiluvchi moslamaning bosh qismi; 7 — voronkalar; 8 — changli havo chiqaruvchi quvur; 9 — drosselli to'siq; 10 — ustun.

64-rasm. РЦИР-3,9-9 markali mahsulot ajratgich — filtr (РЦИР-1,7-4 markali mahsulot ajratgichning o'lchamlari berilgan):
1 — tozalangan havo kamerasi; 2 — korpus; 3 — konussimon to'plagich; 4 — pnevmatik to'qmoq; 5 — boshqarish asbobi; 6 — shamolatish klapani.



Markazdan qochma ajratgichlar so'ruvchi va haydovchi pnevmotransport qurilmalarida yaxshi ishlaydi. Ularning ЦР, ЦРк va УЦ-38 markali turlari mavjud bo'lib, ular asosan so'ruvchi pnevmotransport qurilmalarida ko'p qo'llaniladi. ЦРк ajratgichi ЦР ajratgichiga nisbatan kalta va diametri kichik bo'ladi. УЦ ajratgichining tuzilish sxemasi 60-rasmda keltirilgan.

Tegirmon va yorma korxonalarining donni tozalash va po'st ajratish bo'limlarida pnevmoseparatorlar asosan dondan aerodinamik xususiyati bilan farq qiluvchi yengil chiqindilarni (qobiq, qipiq va b.) va donni havodan ajratish uchun ishlatiladi (65-rasm). РЗ-БСД markali pnevmoseparatorlar aspirator va mahsulot ajratgich vazifasini bajaradi.



65-rasm. РЗ-БСД pnevmoseparatorining ishlash sxemasi:


1 — yon patrubok; 2 — yo'naltiruvchi nova; 3 — voronka; 4 — bo'luvchi konus; 5 — cho'ktirish kamerasi; 6 — tashqi aylanma kanal; 7 — silindr; 8 — pnevmoseparatorning aylanma kanali; 9 — markaziy patrubok; 10 — chiqarish konusi; 11 — to'siq; 12 — shluзли o'tkazgich.

4-§. CHANGNI TUTIB QOLUVCHI USKUNALAR

Pnevмотransпорт qurilmalaridagi pnevmoseparator va mahsulot ajratgichlarda havodan don ajratib olingandan keyin changli havoni tozalash uchun 4БЦШ, УЦ markadagi batareyali siklonlar va РЦИ markali filtrlar qo'llaniladi. Pnevмотransпорт qurilmalari uchun batareyali siklonlar havo sarfiga ko'ra tanlanadi.

5-§. MAHSULOT VA HAVO O'TKAZISH QUVURLARI

Mahsulot quvurlari mahsulot bilan havo aralashmasini qabul qilingan joydan bo'shatish joyiga. Havo quvurlari esa mahsulot ajratgichdan chiqqan changli havoni atmosferaga chiqarib tashlanadigan joyga. Mahsulot quvuri mustahkam, chidamli, zich va ichki yuzasi silliq bo'lishi kerak.



66-rasm. Pnevмотransпорт sxemasi:

a — un tortish bo'limi; *b* — don tozalovchi bo'lim; 1 — qabul qilgich, 2, 5 — o'lchash teshiklari, 3 — mahsulot o'tkazgich, 4 — organik shisha patrubok, 6 — mufta, 7 — shluizli zatvor, 8 — siklon, 9 — pnevmoseparator, 10 — ichiga qabul qilgichlar o'rnatilgan mashinalar (chiqindi mashinasi, jo'vali dastgoh).


Mahsulot quvurlarining tarmoqlari to'g'ri qismlardan va tirsaklardan tashkil topadi.

Tegirmon va yorma korxonalarining sex ichidagi pnevmotransport qurilmalarining mahsulot quvurlari bino qavatlarining balandligi bo'yicha alohida-alohida yaxlit bo'ladi (66-rasm).

Mahsulot quvuri sifatida asosan don uchun devorining qalinligi 4 mm, donni qayta ishlash mahsulotlari uchun esa 2 mm dan yupqa bo'lmagan po'lat quvurlar qo'llaniladi. Mahsulot o'tkazgichning yuqori qismi tirsaklar yordamida bo'shatgichga yoki pnevmoseparatorga tutashtiriladi. Tirsaklarning dumaloqlanish radiuslari 1500 va 2000 mm qilib olinadi. Ba'zi hollarda tirsak radiusini 1000 mm qilib olish mumkin.

Pnevmotransport qurilmalarining ishlashini kuzatish uchun mahsulot o'tkazgichlarga organik shishadan tayyorlangan silindrsimon qarash darchalari o'rnatiladi. Mahsulot quvurlarini ulashga qo'yiladigan asosiy talab ular zich (germetik) va markazlashgan bo'lishi shart.

Havo pnevmotransport qurilmasining bo'shatkichlaridan aspiratsiya qismining oxirigacha harakatlanishi uchun kollektorli va oddiy (havoni almashtiruvchi) havo quvurlari qo'llaniladi. Kollektor tarmoqlantirilgan havo quvuri bo'lib, bo'shatgichlardan chiqqon changli havoni changish tutib qoluvchi qurilmaga uzatish uchun xizmat qiladi (67-rasm).



67-rasm. Bo'shatgich-siklonlardan keyingi havo kollektori:

a — alohida qismlardan yig'ilgan kollektor; b, d — yaxlit kollektorlar;
1 — bo'shatgich-siklon; 2 — spiralsimon qism; 3 — kollektor qismi.

6-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARIDAGI HAVO HAYDOVCHI VA SO'RVUCHI MASHINALARNING TURLARI


Havo haydovchi pnevmotransport qurilmasida havo harakatlanishi uchun mashinalar bosimlar farqini hosil qilish va havo bilan birga mahsulotni qabul qilish joyidan bo'shatish joyiga keltirish uchun xizmat qiladi.

Don va maydalangan don mahsulotlarini tashish uchun pnevmotransport qurilmasida havo haydovchi mashinalarning ikki turi: hajmiy va markazdan qochma mashinalardan foydalaniladi.

Pnevmotransport qurilmasida loyihalash va ishlatishda shuni hisobga olish kerakki, pnevmotransport tarmoqlarining qarshiligi kamayishi bu mashinalarning quvvatini oshishiga, katta miqdorda havo harakatlanishi esa mahsulot quvuri va havo quvurida havoning tezligi ortishiga sabab bo'ladi, natijada mashinaning elektr energiyasi sarfi ancha ko'payadi.


Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida havo haydovchi mashinasining belgilanishiga bog'liq holda markazdan qochma ventilatorlar (B-18 markali № 8 va № 9), markazdan qochma turbohavo haydovchi mashinalar (TB), vintli havo haydagichlar (P3-BHB), shesternali ikki rotorli kompressorlar (3AΦ) va boshqa konstruksiyadagi mashinalar qo'llanilishi mumkin.

3AΦ turidagi shesternali ikki rotorli kompressorlar yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda don va maydalangan don mahsulotlarini pnevmatik tashish tizimlarida



68-rasm. 3AΦ turidagi shesternali ikki rotorli kompressor:

1 — filtr; 2 — saqllovchi klapan; 3 — shovqin so'ndirgich; 4 — elektr dvigateli;
5 — tasmali uzatma; 6 — kompressor; 7 — patrubok; 8 — xafvsizlik to'sig'i; 9 —
havo quvuri; 10 — manometr; 11 — dempfer; 12 — rama; 13 — vibroizolator.



69-rasm. UB-18 turidagi yuqori bosimli markazdan qochma ventilator:
 1 — qobiq; 2 — soʻruvchi quti; 3 — ish gʻildiragi; 4 — podshipnikli qism;
 5 — stanina; 6 — soʻruvchi patrubok.

ishlatiladi. Ular qoʻzgʻalmas boʻlib atrof havosining harorati minus 10 dan plus 35° C gacha boʻlganida ishonchli ishlaydi. 3AΦ kompressorlari quyidagi afzalliklarga ega: havo uzatish diapazoni katta; massasi kichik; kam tebranadi; ishonchliligi yuqori (68-rasm).

Sex ichidagi pnevmotransport qurilmasida qoʻllaniladigan UB-18 markali markazdan qochma ventilatorning kamchiligi quyidagilardan iborat: ishlaganda tebranadi; ish gʻildiragining aylanmish tezligi kattaligi sababli kuchli shovqin hosil boʻladi; ventilatorning foydali ish koʻeffitsiyenti juda kichik — $\eta = 0,64$ (69-rasm).

UB-18 ventilatorlariga nisbatan foydali ish koʻeffitsiyenti katta boʻlgan ($\eta = 0,75$) UB-10-28 markali takomillashtirilgan ventilatorlar ishlab chiqarilmoqda. Ular hosil qiladigan havo bosimi 1000 Pa dan 7500 Pa gacha.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevmotransport qurilmalarining asosiy qismlari nimalardan tashkil topgan?
2. Pnevmatik qabul qiluvchi uskunalarga asosan qanday talablar qoʻyiladi?
3. Soʻruvchi pnevmotransport qurilmalarida pnevmatik qabul qilgichlarning qaysi turlari ishlatiladi?
4. Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida toʻldiruvchi va qabul qiluvchi uskunalarning qaysi turlari qoʻllaniladi?
5. Pnevmotransport qurilmalaridagi mahsulot ajratgichlar qanday belgilanadi va tasniflanadi?

6. Pnevmostparatorlarning tuzilishi va ishlash asosi qanday?
7. Pnevmosttransport qurilmalarida mahsulot quvurlarining qanday turlari qo'llaniladi?
8. Pnevmosttransport qurilmalarida qanday havo quvurlaridan foydalaniladi?
9. Pnevmosttransport qurilmalarida qaysi havo haydovchi mashinalar qo'llaniladi? Ularning ishlash asosi qanday?
10. Pnevmosttransport qurilmalarida chang tutgichlarning qaysi turlari ishlatiladi?

IX BOB. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI LOYIHALASH, HISOBLASH VA USKUNALARNI TANLASH ASOSLARI

1-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalaridagi pnevmotransport qurilmalarini loyihalashda shuni hisobga olish kerakki, bu qurilmalarda tashilgan havo texnologik maqsadlarda ham qo'llaniladi. Natijada texnologik uskunalar (chiqindilardan tozalash, donning yuzasiga ishlov berish uskunlari) sonini qisqartirish imkoniyati yaratiladi.


Texnologik sxemalardagi bu o'zgarishlar qo'shimcha uskunalar o'rnatish uchun joy bo'shatish imkoniyatini beradi. Bu esa korxonaning unumdorligini oshirishni ta'minlaydi.

Tegirmonning donni tozalash va maydalash bo'limlaridagi texnologik jarayonlarning hamma bosqichlarida pnevmotransport qurilmalari qo'llaniladi. Asosan maydalash bo'limida tarmoqlangan so'ruvchi pnevmotransport qurilmalari qo'llaniladi (70-rasm). Pnevmosttransport qurilmalaridan yorma (arpa, suli, tariq) korxonalarida va omixta yem korxonasining ba'zi texnologik jarayonlarida foydalanish mumkin.

Don mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarda pnevmotransport qurilmalarini loyihalash va hisoblash uchun quyidagilar bo'lishi shart:

- donni un tortishga tayyorlash va un tortish (yorma olish) texnologik sxemalari;
- tashiladigan mahsulotlarning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot;
- texnologik uskunalar o'rnatiladigan bino qavatlarining bosh plani va qirqimlari;
- mahsulot harakatining kommunikatsiyasi va un tortishning miqdoriy muvozanati.

70-rasm. Tegirmonning donni maydalash bo'limida texnologik va pnevмотransport uskunalarining qavatlar bo'yicha joylashish sxemasi: 1 — pnevмоqabul qilgich; 2 — o'zioqar nov; 3 — jo'vali dastgoh; 4 — chang ajratgich-siklon; 5 — havo bilan ishlaydigan g'alvirli mashina; 6 — mahsulot quvuri; 7 — rassev; 8 — shlzuzli o'tkazgich; 9 — bo'shatgich; 10 — havo o'tkazgich quvuri; 11 — filtr; 12 — ventilator.



Un tortishning miqdoriy muvozanati bo'yicha har bir pnevмотransport quvuriga tushadigan yuklama aniqlanadi.

Pnevмотransport qurilmalarini quyidagi tartibda loyhalash tavsiya qilinadi:

1. Pnevмотransport qurilmasining sxemasi tanlanadi va asosiy uskunar (qabul qilgichlar, mahsulot ajratgichlar, chang ajratgichlar, havo haydovchi mashinalar)ning turi va tarkibi aniqlanadi.

2. Chizmalarda mahsulotni uzatish va chiqarish nuqtalari belgilanadi. Mahsulot quvurlarining joylashuvi va trassalarning uzunligi aniqlanadi.

3. Tarmoqlangan mahsulot quvurlarining har biri uchun un tortishning miqdoriy muvozanati bo'yicha hisoblangan yuklama aniqlanadi.

4. Mahsulot quvurlarining hisoblangan quvvati, joylashuvi va uzunligi, tashiladigan mahsulotning turi bo'yicha havoning ish tezligi va aralashmaning miqdori aniqlanadi. Bundan tashqari, havo sarfi va mahsulot quvurining diametri aniqlanadi.

5. Mahsulot quvurlari alohida tarmoqlarga joylashtiriladi va shu pnevмотransport qurilmasining chizmalariga chizib kiritiladi.

6. Pnevмотarmoqlar joylashtirilgandan keyin tarmoqning tekislikdagi sxemasi chiziladi. Sxemada mahsulot quvurlari qalin qora

chiziq bilan, havo quvurlari hamda ularning hamma burilish joylari va shakldor detallari shtrix-punktir chiziq bilan tasvirlanadi.

7. Pnevmotarmoq hisoblanadi va tanlangan uskunalarining parametrlari aniqlanadi.

8. Hisoblash materiallari va chizmalar asosida pnevmotarmoqning montaj sxemasi tayyorlanadi.

2-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI HISOBLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblashda havoni almashtirish qurilmalarini hisoblashdagi aerodinamikaning asosiy qonunlaridan foydalaniladi.

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblashda mahsulot quvurida aeroaralashmalar harakatlanganda yo'qotilgan bosim toza havo va mahsulot havo oqimida harakatlanganda jami yo'qotilgan bosim, deb qaraladi. Bunda mahsulot quvurining hisoblangan yuklamasi va havoning tezligi, mahsulot va havo quvurlarining diametri, qurilmaning qismlarida yo'qotilgan bosim, shluqli zatvorlar va bo'shatgich siklonlarning o'lchamlari, havo haydovchi mashinaning bosimi va elektr dvigatelining quvvati aniqlanadi.

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblash uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- oddiy pnevmotransport uchun ish unumdorligi yoki tarmoqlangan pnevmotransport qurilmasi uchun mahsulot quvurlarining yuklamasi;

- mahsulot quvurlari vertikal va gorizontal qismlarining uzunligi va ularda shakldor detallarining mavjudligi;

- tirsaklarning radiusi va burchagi;

- tashiladigan mahsulotlarning nomlari va miqdoriy muvozanat sarfi;

- mahsulot qabul qilgichning turlari;

- mahsulot quvurlarida havo oqimining tashish tezligi;

- aralashmaning massa bo'yicha miqdoriy koeffitsiyenti.

3-§. SO'RUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI HISOBLASH

Pnevmotransport qurilmasining unumdorligi, aeroaralashmaning miqdori va tashish tezligi pnevmotransport qurilmasining o'lchamlari, energiya sarfi va ishonchli ishlash belgilaydi.

Bitta mahsulot quvuri bo'lgan oddiy pnevmotransport qurilmasining unumdorligi (kg/soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = a \frac{1000 \cdot G_{sut}}{24},$$

bu yerda: a — texnologik jarayonning xususiyatlarini hisobga oladigan notekislik (zaxira) koeffitsiyenti; 24 — ish soatlari soni, sutka; G_{sut} — korxonaning unumdorligi, t/sutka.

Tegirmonning yanchish bo'limidagi tarmoqlangan pnevmotransport qurilmasi mahsulot quvurlarining hisoblangan yuklamasi (unumdorligi) un tortishning miqdoriy muvozanatidan (kg/soat) aniqlanadi:

$$G = a \cdot G_m, \quad (2)$$

bu yerda: G_m — mahsulot quvurining miqdoriy muvozanat bo'yicha yuklamasi.

Hisoblangan unumdorlikni (yuklamani) aniqlashda notekislik (zaxira) koeffitsiyenti tegirmonning donni tozalash bo'limi uchun $a = 1,2$, yanchish bo'limi uchun $a = 1,15$ qilib olinadi.

Pnevmotransport qurilmalari katta ortiqcha yuklanishga dosh bermaydi. Shuning uchun zaxira koeffitsiyenti ish vaqtida mahsulot quvurlarining ortiqcha yuklanishi mumkinligini ma'lum darajada hisobga oladi (7-jadval).

Mahsulot quvurlarining uzunligi tirsak va boshqa shakldor qismlarning uzunligini hisobga olgan holda loyiha chizmalaridan aniqlanadi. Mahsulotning ko'tarilish balandligini ta'minlagichdan mahsulot ajratgichgacha vertikal bo'yicha o'lchab aniqlanadi.

Mahsulot o'tkazgichdagi havo oqimining harakatlanish tezligi pnevmotransport qurilmalari ishining asosiy ko'rsatkichidir. Havo oqimining tezligi oshishi natijasida qurilmaning talab qiladigan quvvati ortadi, tashiladigan mahsulot maydalanadi, mahsulot quvuri, ajratgich, pnevmoseparatorning yeyilishi tezlashadi va uskunalarining ishlash samaradorligi kamayadi. Shu bois mahsulotni tashishda havo oqimining tezligi mumkin qadar past bo'lishi kerak. Ammo pnevmotransport qurilmasining havo oqimining chekli joiz tezligi mahsulot o'tkazgichda mahsulot tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy izlanishlar natijasida har xil mahsulotlarni tashish uchun havo oqimining eng maqbul tezliklari aniqlangan (7-jadval). Mahsulot o'tkazgichda havo oqimining hisobiy tezligi quyidagi formuladan yoki 7-jadvaldan aniqlanadi:

$$v_h = K_z(10,5 + 0,57 \cdot v_k), \quad (3)$$

bu yerda: K_z — pnevmotransport qurilmasidagi yuklamaning odatdagi o'zgarishlarida mahsulot barqaror tashilishini ta'minlovchi zaxira koeffitsiyenti; v_k — mahsulotlarning ko'tarilish tezligi, m/s.

Havo bilan mahsulotning muallaq holatdagi aralashmasi aeroaralashma hosil qiladi.

Aeroaralashmaning massa bo'yicha miqdoriy koeffitsiyenti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\mu = \frac{G}{\rho_h Q_h}, \quad (4)$$

bu yerda: G — mahsulot o'tkazgichga vaqt birligi ichida tushgan mahsulot miqdori; Q_h — mahsulot o'tkazgichga vaqt birligi ichida kirgan havo miqdori; ρ_h — mahsulot o'tkazgichga kirgan havoning zichligi.

Mahsulotlarni vaqt birligi ichida tashish uchun kerakli havo miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q_h = 3600 \cdot F \cdot v_h, \quad (5)$$

bu yerda: F — mahsulot o'tkazgichning yuzi, m^2 yoki havoning standart zichligi $\rho_a = 1,2 \text{ kg/m}^3$ qilib olinib, quyidagi formuladan havo sarfi aniqlanadi:

$$Q_h = \frac{G}{1,2 \cdot \mu}. \quad (6)$$

7-jadval

Mahsulotlarning ko'tarilish tezligi va boshqa tavsiflari

Tartib raqami	Mahsulot	O'rta ko'tarilish tezligi, v_k , m/s	Zaxira (notekislik) koeffitsiyenti	Mahsulot o'tkazgichdagi havoning hisoblangan tezligi, m/s
1	Bug'doy doni	9,8	1,5	24,0
2	Don chiqindilari	6,0	1,5	21,0
3	Bug'doy uni:			
	oliy nav birinchi nav ikkinchi nav	1,0	1,8	20,0
4	Bug'doy kepagi	1,2	1,8	20,0
5	Manna yormasi	1,3	1,8	20,0

7-jadvalning davomi

6	Yormalash tizimlari:			
I		5,5	1,5	21,0
II		3,8	1,7	21,0
III		3,0	1,7	21,0
IV		2,0	1,7	20,0
V—VI		2,0	1,5	18,0
7	Saralash mashinalari va 1...3 yanchish tizimlari	1,8	1,7	20,0
8	1...3 qayroqlash tizimlari	3,0	1,7	21,0
9	Qolgani un tortish; qayroqlash tizimlari; yanchish mashinalarining o'tishi, filtr chiqitlari	1,6	1,5	17,0
10	Yirik oqshoqlar	4,0	1,5	19,0
11	Havo bilan ishlovchi birinchi sifatli yormachalarni boyitadigan g'alvirli mashinachiqqan qoldiq, mayda va o'rta oqshoqlar (I...III yor.s. va I...2 q.s.)	3,0	1,5	19,0
12	Tariq	8,3	1,5	23,0
	Tariqni oqlash mahsulotlari, silliqlangan tariq	7,0	1,5	22,0
13	Yembop maydalangan tariq	4,5	1,5	20,5
14	Tariq uni	1,5	1,5	17,0
15	Tariq po'chog'i	2,0	1,5	17,0
16	Oddiy suli	7,0	1,5	22,0
17	Sulini oqlash mahsulotlari	6,0	1,5	21,0
18	Bug'lanmagan suli yormasi	6,5	1,5	21,0
19	Yembop maydalangan suli	5,5	1,5	21,0
20	Suli uni va po'chog'i	2,0	1,5	17,0
21	Oddiy arpa	9,0	1,5	23,0
22	Po'chog'i olingan arpa	8,0	1,5	23,0
23	3-silliqlash tizimidan keyingi mahsulot	7,5	1,5	22,0
24	Arpa yormasi:			
25	№ 1...2	7,5	1,5	22,0
	№ 3...4	7,2	1,5	22,0
	№ 5	6,0	1,5	21,0
26	Arpa po'chog'i	1,8	1,5	17,0
27	Makkajo'xori doni	11,5	1,5	26,0
28	1-maydalash tizimidan keyingi mahsulot	6,2	1,5	21,0
29	Makkajo'xori yormasi:			
	№ 1...2	6,0	1,5	21,0
	№ 3...5	5,5	1,5	21,0
30	Makkajo'xori kepagi	4,0	1,5	19,0
31	Makkajo'xori uni	2,5	1,5	18,0
32	2-oqlash tizimidan keyingi bug'doy	8,0	1,5	23,0
33	Qattiq bug'doy yormasi:			
	№ 1...2	7,5	1,5	22,0
	№ 3...4	6,0	1,5	21,0
	№ 5	5,5	1,5	21,0

Pnevmatik qurilmalarni hisoblashda mahsulotlarni tashish uchun massa bo'yicha miqdor koeffitsiyenti quyidagicha qabul qilinadi:

- chiqindilar uchun — $\mu \leq 1$ (0,6...1,0);
- donni kemadan tushirishda — $\mu = 25...30$;
- tegirmon va yorma korxonalari uchun — $\mu = 3,0...6,0$.

Mahsulot quvurining diametri havo sarfi va havoning hisoblangan tezligiga qarab 16-ilovadan aniqlanadi. Aniqlangan ko'rsatkich eng yaqin standart diametrigacha yaxlitlanadi, keyin havo sarfining uzil-kesil hisoblangan ko'rsatkichi aniqlanadi va massa bo'yicha miqdor koeffitsiyenti qayta hisoblanadi.

4-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QISMLARIDA YO'QOTILGAN BOSIMNI ANIQLASH

Pnevмотransport qurilmasidagi yo'qotilgan umumiy bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_u = H_{p,q} + H_{v,q}, \quad (7)$$

bu yerda: $H_{p,q}$ — havo va mahsulot aralashmasining pnevmotransportdagi harakati davomida yo'qotilgan bosim; $H_{v,q}$ — pnevmotransport qurilmasining ventilatsiya qismida yo'qotilgan bosim.

Loyihalash ma'lumotlaridan farq qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, hisoblangan yo'qotilgan bosim 10 % ko'proq qilib olinadi: $H_{his} = 1,1 \cdot H_{y,q}$.

Pnevмотransport qurilmasida yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{p,q} = H_m + H_{q,u} + \Sigma H_m + H_{l,l} + H_{l,g} + H_{gr} + H_k + H_{s,s} + H_{q,u}, \quad (8)$$

bu yerda: H_m — qabul qiluvchi uskuna bilan tutashgan mashinada yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{q,u}$ — qabul qiluvchi uskunada yo'qotilgan bosim, Pa; ΣH_m — mahsulotga shig'ov (tezlashtirish) berish va tirsakdan keyin havoning tezligini tiklash uchun yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; $H_{l,v}$, $H_{l,g}$ — mahsulot o'tkazgich quvurining vertikal va gorizontaal to'g'ri qismlarida aeroaralashmaning harakati natijasida ishqalanish uchun yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; H_{tir} — tirsaklarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; H_k — mahsulotni vertikal ko'tarish uchun yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{s,s}$ — bo'shatgich-siklonda yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{q,u}$ — qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim, Pa.

Mashinalarda yo'qotilgan bosim, H_m 16-ilovadan aniqlanadi. Pnevмотransportning qabul qiluvchi uskunasi yo'qotilgan bosim $H_{q,u}$ ning turiga bog'liq holda quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{q.u.} = \xi_{q.u.} \cdot \rho_h \frac{v_{q.u.}^2}{2} = \xi_{q.u.} \cdot H_d, \quad (9)$$

bu yerda $\xi_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunaning turiga bog'liq bo'lgan qarshilik koeffitsiyenti (8-jadval); ρ_h — havoning zichligi, kg/m³; $v_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunadagi havoning tezligi, m/s; H_d — dinamik bosim, Pa; qarshilik koeffitsiyentining qiymati quyidagicha qabul qilinadi.

8-jadval

Pnevmatik qabul qiluvchi uskunalarining qarshilik koeffitsiyenti

Tartib №ami	Pnevmoqabul qiluvchi uskuna turi	$\xi_{q.u.}$
1.	«Soplo»	0,7
2.	«Troynik»	1,5
3.	Jo'vali dastgohga o'rnatilgan uskuna	0,7
4.	Vertikal mahsulot quvuridagi don uskunasi	1,5

Pnevmoqabul qiluvchi uskunadagi havoning tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$v_{q.u.} = \frac{v_h \cdot F}{F_{q.u.}}, \quad (10)$$

bu yerda: v_h — havoning tezligi, m/s; F — mahsulot quvurining diametri, m²; $F_{q.u.}$ — qabul qiluvchi uskunaning diametri, m².

Mahsulotni tezlashtirish uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Sigma H_m + H_{k.t.} + \Sigma H_{tir.m.}; \quad (11)$$

a) pnevmo qabul qiluvchi uskunadan keyin

$$H_{q.t.} = iG; \quad (12)$$

b) tirsakdan keyin

$$\begin{aligned} H_{tir.t} &= \Delta u \cdot iG; \\ \Sigma H_{tir} &= iG + \Delta y \cdot iG = (1 + \Delta y) iG, \end{aligned} \quad (13)$$

bu yerda: i — 1 tonna mahsulotni 1 soatda tezlashtirish uchun yo'qotilgan bosim, Pa (16-ildovanidan aniqlanadi); G — pnevmotransport qurilmasining hisoblangan unumdorligi, t/soat; Δy — tirsakning markaziy burchagiga tirsak radiusining mahsulot quvuri diametriga nisbatiga va tirsakdan keyingi to'g'ri quvur qismining uzunligiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent, 9-jadvaldan aniqlanadi.

i ning qiymatini aniqlashda ko'chiriladigan mahsulotlarni «dag'al» yoki «yumshoq» mahsulotga taalluqliligi aniqlanadi (16-ilova).

«Dag'al» mahsulotlarga quyidagilar kiradi: I, II, III va IV — yormalash tizmalaridan, 1, 2 va 3-un tortish tizmalaridan, 1 va 2-silliqlash tizimlardan I va II chiqindi hamda yirik yormalar tizimlaridan chiqqan un tortish mahsulotlar. «Yumshoq» mahsulotlarga tortishning qolgan mahsulotlari, tayyor mahsulotlar, yembop un, kepak va makkajo'xori murtagi kiradi.

Yo'qotilgan bosimning koeffitsiyenti Δy

9-jadval

Mahsulot quvuri diametrining tirsak radiusiga nisbati, r/d_{ichki}	Tirsakning markaziy burchagi, grad	Tirsakdan keyingi qismning uzunligiga bog'liq bo'lgan Δy koeffitsiyentning qiymati			
		1,0 m	2,0 m	3,0 m	4,0 va bundan ortiq
2...4	15...30	0,075	0,136	0,14	0,18
	31...60	0,14	0,25	0,29	0,36
	61...75	0,19	0,33	0,38	0,48
	76...90	0,24	0,42	0,48	0,60
5...9	15...30	0,06	0,11	0,12	0,15
	31...60	0,12	0,21	0,24	0,30
	61...75	0,16	0,28	0,32	0,40
	76...90	0,20	0,35	0,40	0,50
10...12	15...30	0,05	0,08	0,10	0,12
	31...60	0,10	0,17	0,19	0,24
	61...75	0,13	0,22	0,25	0,32
	76...90	0,16	0,28	0,32	0,40

Mahsulot quvurining vertikal va gorizonttal to'g'ri qismlarida aeroaralashma harakatlanishi natijasida ishqalanish uchun yo'qotilgan bosimlar quyidagi formuladan aniqlanadi:

a) vertikal qism uchun

$$H_{i.v.} = H_{t.h.} (1 + K_v \cdot \mu); \quad (14)$$

b) gorizonttal qism uchun

$$H_{i.g.} = H_{t.h.} \cdot (1 + K_g \cdot \mu); \quad (15)$$

bu yerda: $H_{t.h.}$ — mahsulot quvurida toza havo harakatlanganda ishqalanish uchun yo'qotilgan bosim, Pa; K_v , K_g — mahsulot quvurida mahsulot harakatlanishiga qarshilik koeffitsiyentlari (16-ilovada mahsulotning «dag'al» yoki «yumshoq» turga bog'liq holda aniqlanadi).

Mahsulot quvurida toza havo harakatlanganda ishqalanishga yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{\text{t.h.}} = R \cdot l, \quad (16)$$

bu yerda: R — 1 m uzunlikdagi mahsulot quvurida toza havo ishqalanishidan yo'qotilgan bosim, Pa (16-ildovadan olinadi); l — mahsulot quvurining uzunligi, m.

Mahsulot quvurining tirsaklarida yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{\text{tir}} = H_{\text{tir.t}} \cdot (1 + K_{\text{tir}} \cdot \mu), \quad (17)$$

bu yerda: $H_{\text{tir.t}}$ — tirsakda toza havo harakatlanganda yo'qotilgan bosim, Pa (10-jadval);

K_{tir} — tirsakda yo'qotilgan bosim koeffitsiyenti (16-ildovadan aniqlanadi).

10-jadval

Toza havo harakatlanganda tirsakda yo'qotilgan bosim
(α — tirsakning burchagi, $\alpha = 75...90^\circ$)

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
18	1000	160	120	100	80	70	-	-
	1500	240	180	150	120	100	90	70
	2000	320	230	190	150	130	110	90
19	1000	180	140	110	90	80	-	-
	1500	270	200	160	130	110	100	80
	2000	350	260	210	170	140	130	100
20	1000	200	150	130	100	90	-	-
	1500	300	220	180	140	120	110	90
	2000	390	290	240	190	160	14	110
21	1000	220	170	140	110	100	-	-
	1500	330	240	200	160	140	120	90
	2000	430	320	260	210	160	150	120
22	1000	250	180	150	120	110	-	-
	1500	360	260	220	170	130	130	100
	2000	470	350	280	230	190	170	130

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
23	1000	270	200	170	130	120	-	-
	1500	390	290	240	190	160	140	110
	2000	520	380	310	250	210	190	140
24	1000	290	220	180	150	130	-	-
	1500	430	310	260	210	180	160	120
	2000	560	410	340	270	230	200	150

Mahsulot tik ko'tarilishi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_k = \rho \cdot \mu \cdot h \cdot g = 1,2 \mu \cdot h \cdot g, \quad (18)$$

bu yerda: h — mahsulotni pnevmoqabul qilgichdan mahsulot ajratgichgacha bo'lgan vertikal quvurning uzunligi, m.

Mahsulot ajratgichda yo'qotilgan bosim quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{s,A} = \xi \cdot \rho v_k^2 / 2, \quad (19)$$

bu yerda: ξ — bo'shatgich-siklonning qarshilik koeffitsiyenti, u quyidagiga teng:

$$\text{ЦПК} — 3,7$$

$$\text{ЦПК} — 4,5$$

УЦ38-20 DII (DII — bo'shatgich-siklonning diametri). v_k — bo'shatgich siklonning patrubogidagi havoning tezligi, m/s quyidagichadir:

ЦПК — bo'shatgich-sikloni uchun:

don 8...10 m/s

yormalash va un tortish tizimlarining mahsuloti 14...20 m/s

ЦП — bo'shatgich-sikloni uchun:


un tortish tizimlarining mahsuloti 14...18 m/s

УЦ-38 bo'shatgich-sikloni uchun:

un tortish mahsuloti va un 10...12 m/s

Qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{q,y} = \xi_{q,y} \cdot \rho_{q,y} \cdot (Q_{q,y} / K_{q,y})^2, \quad (20)$$



71-rasm. Qisuvchi uskuna sxemasi.

bu yerda: $\xi_{q.y.}$ — Venturi soplosining qarshilik koeffitsiyenti, 2,5 ga, Venturi quvuri uchun 1 ga teng; $\rho_{q.y.}$ — qisuvchi uskunaning kirishdagi havoning zichligi, kg/m^3 ; $Q_{q.y.}$ — qisuvchi uskunadagi o'tadigan havo sarfi, m^3/soat ; $K_{q.y.}$ — qisuvchi uskuna havo sarfining koeffitsiyenti, 11-jadvaldan (71-rasm) aniqlanadi.

11-jadval

Qisuvchi uskuna tavsifi

Tartib raqani	Qisuvchi uskunaning o'lchamlari (71-rasm)				Sarf koeffitsiyenti
	D	D_1	D_2	A	
1.	315	200	345	1145	530
2.	355	225	385	1290	670
3.	400	255	430	1455	870
4.	450	290	480	1615	1040
5.	500	320	530	1790	1360
6.	560	355	590	2035	1720
7.	630	400	660	2290	2120
8.	710	450	740	2580	2750
9.	800	510	830	2890	3450

Pnevмотransпорт qurilmasining havoni almashtirish (ventilatsiya) qismi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{v.q.} = H_{kol} + H_{ch.t.} + H_{h.o.} + H_{h.o.}, \quad (21)$$

bu yerda: H_{kol} — havo o'tkazgichning kollektorida yo'qotilgan bosim ($H_{kol} = 300 \dots 500 \text{ Pa}$, tarmoqlangan kollektorning uzunligiga bog'liq); $H_{ch.t.}$ — chang tutgichda yo'qotilgan bosim, Pa ; $H_{h.o.}$ — bog'lovchi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim, ($H_{h.o.} = 500 \dots 1000 \text{ Pa}$, havo o'tkazgichning uzunligiga bog'liq).

Pnevмотransпорт qurilmasiga havo haydovchi mashina tanlashda yo'qotiladigan bosim quyidagicha hisoblab aniqlanadi:

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
23	1000	270	200	170	130	120	-	-
	1500	390	290	240	190	160	140	110
	2000	520	380	310	250	210	190	140
24	1000	290	220	180	150	130	-	-
	1500	430	310	260	210	180	160	120
	2000	560	410	340	270	230	200	150

Mahsulot tik ko'tarilishi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_k = \rho \cdot \mu \cdot h \cdot g = 1,2 \mu \cdot h \cdot g, \quad (18)$$

bu yerda: h — mahsulotni pnevmoqabul qilgichdan mahsulot ajratgichgacha bo'lgan vertikal quvurning uzunligi, m.

Mahsulot ajratgichda yo'qotilgan bosim quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{sA} = \xi \cdot \rho v_k^2 / 2, \quad (19)$$

bu yerda: ξ — bo'shatgich-siklonning qarshilik koeffitsiyenti, u quyidagiga teng:

$$\Pi_{PK} = 3,7$$

$$\Pi_{PK} = 4,5$$

YЦ38-20 Ду (Ду — bo'shatgich-siklonning diametri). v_k — bo'shatgich siklonning patrubogidagi havoning tezligi, m/s quyidagichadir:

ЦПк — bo'shatgich-sikloni uchun:

don 8...10 m/s

yormalash va un tortish tizimlarining mahsuloti 14...20 m/s

ЦП — bo'shatgich-sikloni uchun:


un tortish tizimlarining mahsuloti 14...18 m/s

YЦ-38 bo'shatgich-sikloni uchun:

un tortish mahsuloti va un 10...12 m/s

Qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{qy} = \xi_{qy} \cdot \rho_{qy} \cdot (Q_{qy} / K_{qy})^2, \quad (20)$$



71-rasm. Qisuvchi uskuna sxemasi.

bu yerda: ξ_{qy} — Venturi soplosining qarshilik koeffitsiyenti, 2,5 ga, Venturi quvuri uchun 1 ga teng; ρ_{qy} — qisuvchi uskunaning kirishdagi havoning zichligi, kg/m^3 ; Q_{qy} — qisuvchi uskunadagi o'tadigan havo sarfi, m^3/soat ; K_{qy} — qisuvchi uskuna havo sarfining koeffitsiyenti, 11-jadvaldan (71-rasm) aniqlanadi.

11-jadval

Qisuvchi uskuna tavsifi

Tartib raqani	Qisuvchi uskunaning o'lchamlari (71-rasm)				Sarf koeffitsiyenti
	D	D_1	D_2	A	
1.	315	200	345	1145	530
2.	355	225	385	1290	670
3.	400	255	430	1455	870
4.	450	290	480	1615	1040
5.	500	320	530	1790	1360
6.	560	355	590	2035	1720
7.	630	400	660	2290	2120
8.	710	450	740	2580	2750
9.	800	510	830	2890	3450

Pnevмотransпорт qurilmasining havoni almashtirish (ventilatsiya) qismi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{v.q.} = H_{kol} + H_{ch.t.} + H_{h.o.} + H_{h.o'}, \quad (21)$$

bu yerda: H_{kol} — havo o'tkazgichning kollektorida yo'qotilgan bosim ($H_{kol} = 300 \dots 500$ Pa, tarmoqlangan kollektorning uzunligiga bog'liq); $H_{ch.t.}$ — chang tutgichda yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{h.o.}$ — bog'lovchi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim, ($H_{h.o.} = 500 \dots 1000$ Pa, havo o'tkazgichning uzunligiga bog'liq).

Pnevмотransпорт qurilmasiga havo haydovchi mashina tanlashda yo'qotiladigan bosim quyidagicha hisoblab aniqlanadi:

$$H_h = H_{h,q} + H_{v,q} + H_{h,o} \quad (22)$$

bu yerda: $H_{h,o}$ — tarmoqda hisobga olinmagan yo'qotilgan bosim (umumiy yo'qotilgan bosim $H_u \leq 6000$ Pa bo'lganda $H_{h,o} = 800$ Pa bo'ladi, $H_u > 6000$ Pa bo'lganda $H_{h,o} = 1500$ Pa bo'ladi).

5-§. HAVO HAYDOVCHI MASHINALARNI TANLASH

Havo haydovchi mashinalarni tanlashda pnevmotarmoqning ko'rsatkichlari hisoblangan havo sarfi (Q_h) va hisoblangan bosim ($H_{h,u}$) ga qarab, havo haydovchi mashinaning tavsifnomasidan tanlanadi.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan bosimi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{h,u} = \frac{H_h}{1 - \frac{H_h}{101300}}, \quad (23)$$

bu yerda: H_h — pnevmotransport qurilmasining hisoblangan bosimi, Pa.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan havo sarfi Q_h quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_h = 1,05 (\Sigma Q_f + \Sigma \Delta Q_f), \quad (24)$$

bu yerda: Q_f — filtrga kiradigan havo miqdori, m³/soat; ΔQ_f — filtrga qo'shimcha so'riladigan havo miqdori, m³/soat.

Havo haydovchi mashina elektr dvigatelining talab etiladigan quvvati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_h = \frac{Q_h \cdot H_{h,u}}{3600 \cdot 1000 \eta_{h,h} \cdot \eta_y \cdot \eta_{pod}}, \quad (25)$$

bu yerda: $\eta_{h,h}$ — havo haydovchi mashinaning foydali ish ko'effitsiyenti. Mashinaning aerodinamik tavsifnomasidan aniqlanadi; η_u — uzatmaning foydali ish ko'effitsiyenti, u havo haydovchi mashina elektr dvigateli bilan bir o'qda ishlasa 1,0 ga teng, mashina o'qiga mufta orqali bog'langan bo'lsa, 0,98 ga, tasma orqali bog'langan bo'lsa, 0,95 ga teng; η_{pod} — podshipniklarda yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi ko'effitsiyent, 0,98...0,99 ga teng.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevmotransport qurilmalarini loyihalashda va hisoblashda qaysi asosiy ma'lumotlar kerak bo'ladi?

2. Pnevмотransport qurilmalari qanday ketma-ketlikda loyihalanadi?
3. Pnevмотransport qurilmalarini hisoblashda qanday maqsad va boshlang'ich ma'lumotlar kerak bo'ladi?
4. Pnevмотransport qurilmalarida yo'qotilgan bosim qaysi qismlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisidan iborat?
5. Pnevмотransport qurilmasining ventilyatsiya qismida yo'qotilgan bosim qaysi qismlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisidan tashkil topadi?
6. Havo haydovchi mashinalarni tanlash uchun qaysi hisoblash ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
7. Pnevмотransport qurilmalari uchun bo'shatkich qanday tanlanadi?
8. Pnevмотransport qurilmalarini hisoblash tartibi qanday?

X BOB. KO'P MIQDORDAGI AEROARALASHMALARNI KO'CHIRUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARI VA AEROQUVURLAR

1-§. KO'P MIQDORDAGI AEROARALASHMALARNI KO'CHIRUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING BELGILANISHI VA AHAMIYATI

Mayda zarrali kukunsimon mahsulotlarni havo yordamida ko'chirishda aerzoltransportdan foydalaniladi. Aerzoltransportda mahsulotni ko'chirishda 1 kg havoda kukunsimon mahsulot miqdori $\mu = 50 \dots 200$ kg ni tashkil qiladi. Bu esa havoda mahsulot miqdori ko'p bo'lishini ta'minlaydi.

Aerzoltransport qurilmalarida kukunsimon mahsulotlarning havo bilan to'yinish xususiyatidan foydalanilgan. Bu usulda mahsulotlarni vertikal va gorizontaal yo'nalishlarda xohlagan masofaga ko'chirish mumkin.

Kukunsimon mahsulotlar havo bilan to'yintirilganda ularning fizik xususiyatlari o'zgaradi, ya'ni ichki ishqalanish koeffitsiyenti va hajmiy massasi kamayishi natijasida ular oquvchan bo'ladi va ko'chirish osonlashadi.

Omixta yem korxonalarida aerzoltransportning quyidagi liniyalari nazarda tutiladi:

- don va kunjarani maydalash;
 - kepak tayyorlash;
 - tarkibiy qismlarni oldindan aralashtirish;
 - tayyor mahsulotni ko'chirish.
- Aerzoltransport qurilmalarining afzalliklari:
- qurilmalarning ish unumi yuqori;

— mahsulotni ko'chirishda juda kam havo sarflanadi. Bu esa qurilmadagi ajratgichlar va chang tutgichlarning o'lchamlarini ancha kamaytirish imkoniyatini beradi;

— 1 tonna mahsulotni ko'chirish uchun pnevmotransport qurilmasiga nisbatan kam energiya sarflanadi;


— chidamli va tejamli ishlaydi, ularga xizmat ko'rsatish oson.

2-§. QURILMALARDAGI SHLUZLI VA SHNEKLI QABUL QILGICHLARNING ISHLASH ASOSLARI VA TUZILISHI

Ko'p miqdordagi kukunsimon mahsulotlarni kam havo bilan ko'chirish uchun katta bosim talab qilinadi. Aerozoltransport qurilmalarida kerakli bosimlar farqini ta'minlash uchun faqat haydovchi aerzoltransport qurilmalari qo'llaniladi.

Haydovchi aerzoltransport qurilmalarining ishlash ko'rsatkichlari quyidagicha: quvvati 18...20 t/soat; mahsulot o'tkazgich quvurining balandligi 40 m; mahsulot o'tkazgichning umumiy uzunligi 150 metrgacha; havo oqimining boshlang'ich tezligi 6...17 m/s.

Aerzoltransport qurilmalari (72-rasm) asosan quyidagilardan tashkil topgan: kompressor; havo o'tkazgichlar; shnekli ta'minlagich; mahsulot o'tkazgichlar; bo'shatgich.



72-rasm. Unni ko'chirish uchun mo'ljallangan aerzoltransport qurilmasining sxemasi:

1 — kompressor; 2, 5 — havo-moy ajratgichlar; 3 — resiver; 4 — havo o'tkazgich; 6 — taqsimlovchi havo o'tkazgich; 7 — shnekli ta'minlagich; 8 — manometr; 9 — mahsulot o'tkazgich; 10 — ikki holatli almashlab ulagich; 11 — un bunker.


Aerozoltransport qurilmalarining eng muhim qismi ta'minlagichlardir. Ularga alohida talablar qo'yiladi.

Ular mahsulot o'tkazgichga mahsulot bir me'yorda tushishini ta'minlashi, mahsulot yuqori darajada oquvchan bo'lishi uchun uni havo bilan yaxshi to'yintirishi mahsulot birligini ko'chirishga sarflaydigan elektr energiyasi kam bo'lishi kerak.

Aerozoltransport qurilmalari uchun shluzli, vintli (shnekli) va kamerali ta'minlagichlar qo'llaniladi.


Shluzli mahsulot ta'minlagichlar elektr energiyasi — sarfi nisbatan kamligi, o'lchamlarining katta emasligi va tuzilishi oddiyligi bilan nisbatan boshqalardan farq qiladi. Ularning asosiy kamchiligi — korpusi bilan rotori orasidagi tirqishlardan havo sirqiydi, bu esa uskunaning energiya sarfini oshiradi.

Shluzli ta'minlagich quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan (73-rasm): gorizontall joylashgan cho'yan silindrsimon korpus 5; po'lat val 3 presslab o'rnatilgan aylanuvchi cho'yan parrakli rotor 4; qisilgan havo uzatish uchun patrubok 1; aeroaralashma chiqib ketadigan patrubok 6. Ta'minlagich korpusining yuqoridagi to'ldirish teshigiga mahsulot tushadi. Mahsulot aylanuvchi rotorning uyalarini ketma-ket to'ldiradi va korpusning pastki qismiga o'tadi. Ta'minlagichga patrubok 1 orqali kirayotgan havo mahsulotni to'yintiradi (aerotsiyalaydi) va uni mahsulot quvuriga patrubok 6 orqali itarib chiqaradi.



73-rasm. Shluzli ta'minlagich:

- 1 — patrubok; 2 — qopqoq; 3 — val; 4 — rotor; 5 — korpus;
6 — chiqaruvchi patrubok.



74-rasm. Shnekli ta'minlagich:

1 — elektr dvigateli; 2 — birlashtiruvchi mufta; 3 — podshipnik; 4 — kirish patrubi; 5 — shnek; 6 — patrubi; 7 — aeratsiyalash kamerasining pastki qismi; 8 — havo uzatuvchi patrubi; 9 — mikrog'ovakli to'siq; 10 — aeratsiyalash kamerasining yuqorigi qismi; 11 — forsunka; 12 — mahsulot o'tkazgich; 13 — ventillar; 14 — havo o'tkazgich.

Vintli ta'minlagich (74-rasm) ikkita asosiy qism: shnek va aeratsiya kamerasidan tashkil topgan.

Mahsulot vintli (shnekli) ta'minlagichning kirish patrubi 4 ga tushadi va shnek 5 vositasida aeratsiyalash kamerasi 10 ga uzatiladi.

Qisilgan havo kompressordan aeratsiyalash kamerasining pastki qismidagi mikrog'ovakli to'siq 9 tagiga keladi. Mikrog'ovakli to'siqdan o'tgan havo aerokameraning butun kesimi bo'yicha bir tekis taqsimlanadi. Bu esa mahsulot yaxshi aeratsiyalanishini ta'minlaydi.

3-§. AEROQUVURLARNING BELGILANISHI, TUZILISHI VA ISHLASH SXEMALARI

Ko'p miqdorda ko'chirishga mo'ljallangan pnevmotransport qurilmalariga aerogravitatsion va aerodinamik transport qurilmalari ham kiradi.

Aerozoltransport va aerogravitatsion qurilmalar tegirmondagi unni idishsiz saqlash sexlariga ko'chirishda keng qo'llaniladi.

Don va don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida un, manna yormasi, o'mixta yem, kepak va donni ko'chirish uchun aerogravitatsion va aerodinamik transport (aeroquvurlar) qurilmalari ishlatiladi.

Zamonaviy aeroquvurlarni ikki turga bo'lish mumkin:


1. Aerogravitatsion quvurlar — quvurda havoni taqsimlovchi qurilma (to'siq) sifatida keramikadan yoki matodan tayyorlangan havo o'tkazuvchi to'siqlar qo'llaniladi.

2. Aerodinamik quvurlar — quvurda havoni taqsimlovchi to'siq sifatida havo oqimi chiqadigan teshigi mahsulot qatlamini harakatlantiradigan tomonga yo'naltirilgan qabariq teshikli panjaradan foydalaniladi.

Aerogravitatsion transportda (aeroquvurlarda) havo material (to'siq) ning g'ovaklari orqali mayda oqimchalar tarzida to'siqning tekisligiga perpendikular yo'nalishda o'tib, to'siq ustidagi sochiluvchan mahsulot orasiga kiradi va uni suyultiradi. Natijada mahsulot zarrachalari orasidagi ichki ishqalanish kuchlari ancha kamayadi va mahsulot qatlami psevdosuyuqlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Sochiluvchan mahsulotning psevdosuyultirilgan, yoki qaynovchi qatlami to'siq ustida harakatlanishi gravitatsion kuchlar ta'sirida amalga oshadi.

Aerogravitatsion transport qurilmasi (aeroquvur) ning tuzilishi 75-rasmda keltirilgan. Aeroquvur 3 (to'rtburchak kesimli kanal) balandligi bo'yicha havo taqsimlovchi qurilma (mikrog'ovakli to'siq) 4 vositasida ikkiga. Yuqorigi ko'chiruvchi va pastki havo keltiruvchi qismlarga bo'lingan. Mahsulot patrubok 2 orqali aeroquvurning



75-rasm. Aeroquvurning tuzilish sxemasi:

- 1 — ventilator; 2 — klapanli ta'minlovchi patrubok; 3 — aeroquvur; 4 — mikrog'ovakli to'siq; 5 — changli havoni so'ruvchi moslama; 6 — ramali mato filtri; 7 — bo'shatuvchi patrubok.

yuqorigi qismiga tushadi. Aeroquvurning pastki qismiga ventilator 1 yordamida havo yuboriladi. Mikro'ovakli to'siq 4 dan o'tgan kapillar — changli havo kukunsimon yoki mayda donli mahsulot zarrachalari orasida havo qatlamini hosil qiladi. Bu qatlam zarrachalar orasidagi ishqalanish va ishlash kuchini kamaytiradi. Bunday sharoitda mahsulot 3...4° burchak ostida joylashgan to'siq yuzasidan suyuqlikdek oqa boshlaydi.

Aeroquvurning unumdorligini oshirish talab qilinganda va montaj sharoiti bunga imkon berganda aeroquvur 5...8° qiyalik bilan montaj qilinadi.

Aeroquvurlardagi ortiqcha havo aeroquvurning yuqori qismida joylashgan teshik (ramali mato filtr) orqali chiqarib yuboriladi. Aeroquvurdagi chang havo o'tkazgich orqali tozalovchi filtrga uzatiladi.

Aeroquvur samarali ishlashi uchun uning hamma qismlari (germetik) bo'lishi kerak. Aeroquvurning zichligi buzilganda aeroaralashmaning (mahsulot va havo aralashmasining) ko'chish tezligi pasayadi. Natijada aeroquvurning unumdorligi kamayadi.

Tegirmonlarda unni ko'chirish uchun unumdorligi 10, 15, 20, 25 va 40 t/soat bo'lgan aeroquvurlar chiqariladi. Unumdorligi 40 t/soat bo'lgan aeroquvurning qiyalik burchagi 10° ga teng.

Aeroquvurlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- yuklash va ko'chirish ishlari to'liq mexanizatsiyalashtirilgan;
- qurilmaning tuzilishi oddiy va unga xizmat ko'rsatish oson;
- mahsulotni maydalovchi va ifloslantiruvchi harakatlanadigan ish qismlari yo'q;
- ko'chiriladigan mahsulotning sifati (havo bilan sovitilishi) yaxshi;
- yuklash va bo'shatish ishlari qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan.

Tekshirish uchun savollar

1. Ko'p miqdordagi aeroaralashmani ko'chirishda qanday pnevmotransport qurilmalari qo'llaniladi?
2. Aerozoltransportning ishlash asosi nimalardan iborat?
3. Aerozoltransport qurilmasining asosiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Pnevмотransport qurilmalarining ta'minlangichlariga asosan qanaqa talablar qo'yiladi?
5. Aeroquvurlarning ahamiyati va ishlash asosi nimalardan iborat?
6. Un va donni ko'chirishda qo'llaniladigan aeroquvurlarning afzalliklari nimalardan iborat?

XI BOB. VENTILATSIYA VA PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI SINASH, SOZLASH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH

1-§. ASPIRATSIYA VA PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI SINASHNI TASHKIL QILISH

Havoni almashtirish va pnevmotransport tarmoqlarini samarasiz ishlashiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- tarmoqlarni noto'g'ri loyihalash;
- tarmoqlarni montaj qilish ishlarini qoniqarsiz bajarish yoki loyihada belgilangan ishlarni ozgina chekinishlar bilan amalga oshirish;
- ishlab turgan qurilmalarni noto'g'ri ishlatish.

Agar havoni almashtirish va pnevmotransport qurilmalari to'g'ri loyihalangan, to'g'ri montaj qilingan va ishga tushirishdan oldin sozlangan bo'lsa ham qoniqarsiz foydalanish natijasida ular past samaradorlik bilan ishlaydi.

Havoni almashtirish va pnevmotransport qurilmalarining holati va samarali ishlashi, sozlanishi haqidagi tasavvurni ularni sinash asosida olish mumkin. Qurilmalarni sozlashda havo o'tkazgichlar, mahsulot o'tkazgichlar, bo'shatgichlar va chang ajratgichlar zich bo'lishi va hisoblangan natijalar haqiqiy natijalarga mos kelishi kerak.

Sinovlar qabul qilishdagi va nazorat sinovlariga bo'linishi mumkin.

Yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan qurilmalarni qabul qilishda va foydalanishga topshirishda qabul sinovlari o'tkaziladi.

Ishlab turgan va pnevmotransport qurilmalarini ishlatish vaqtida davriy tekshirish, sozlash va pasportlash paytida nazorat sinovlari o'tkaziladi.

Havoni almashtirish va pnevmotransport qurilmalarini sinash o'rnatilgan uskunalarni ko'rib chiqishdan va loyihaga, hisoblarga va uning loyihadan kelishilgan chekinishlarga mos kelishini tekshirishdan boshlanadi.

Havoni almashtirish qurilmalarini ko'rib chiqish uchun quyidagilar aniqlanadi:

- zichlovchi uskunalarining konstruksiyalarini va so'ruvchi patruboklarning, havo o'tkazgichlar trassasi va ko'ndalang kesimi yuzining konstruksiyasi loyihaga mosligi;

- chang ajratgichlar va ventilatorlarning tur-o'lchamlari;
- uskunalarni o'rnatish sifati va ishlatishga tayyorligi;
- aerodinamik o'lchashlar uchun havo o'tkazgichlarda tiqinli teshiklar mavjudligi.

Pnevмотransport qurilmalarini ko'rib chiqishda ularning loyihaga mosligi, ya'ni quyidagilar aniqlanadi: havo haydovchi mashinaning turi; chang ajratgichlar (filtr va batareyali siklonlar), pnevmo-separatorlar va bo'shatgichlar, shluzli zatvorlar, ta'minlovchi va boshqa uskunalarining tur-o'lchamlari. Mahsulot quvurining ichki diametri, havo o'tkazgichlar va kollektor qismlarining diametri hisoblangan diametrlarga mosligi ham aniqlanadi. Pnevмотransport tarmoqlarining trassalarida quyidagilar: mahsulot o'tkazgichning uzunligi, pnevmoqurilma qismlarining o'zaro va asosiy qismlar bilan birikmasi; bo'shatgichda, mahsulot o'tkazgichlarda, kollektorlarda va havo o'tkazgichlarda aerodinamik o'lchashlarni amalga oshirish uchun shtutserlar va tiqinli teshiklar mavjudligi tekshiriladi.

Havoni almashtirish va pnevмотransport qurilmalarini ko'rib chiqishda aniqlangan kamchiliklar maxsus qaydnomada belgilanadi. Shu qaydnomada asosida ish hajmi, ijrochi va ishni bajarish muddati belgilanadi.

Ishlayotgan aspiratsiya qurilmalarida quyidagilar tekshiriladi:

- ventilatorning ishlashi (ish g'ildiragining aylanish chastotasi va yo'nalishi, taqillash va tebranish mavjudligi, podshipniklarning qizishi);

- filtrlarning ishlashi (valning aylanishi chastotasi, yengliklarni davriy silkitish mexanizmining ishlashi);

- havo o'tkazgichlar va chang ajratgichlarning hamma tutashish hamda birikish joylarining zichligi va ularda qo'shimcha havo so'rilishi mavjudligi.

Aspiratsiya qurilmalaridagi aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan keyingina sinov o'tkaziladi.

Havoni almashtirish qurilmalarini sinashda quyidagilar aniqlanadi:

- aspiratsiya qilinadigan uskunada, aspiratsiya tarmog'ida va uning alohida qismlarida yo'qotiladigan bosim;

- aspiratsiya tarmog'ining alohida qismlaridagi havoning tezligini;

- butun tarmoqda va uning alohida qismlarida havo oqimining taqsimlanishi;

- zichligi buzilgan joylardan qo'shimcha so'riladigan yoki yo'qotiladigan havo miqdori;

— chang ajratgichlar va mahsulot ajratgichlarning ishlash rejimi (yuklamasi, tozalash samaradorligi, qarshiligi);

— ventilatorning ishlash rejimi (bosimi, ko'chiriladigan havo hajmi), ventilator elektr dvigatelining quvvati;

— ho'l filtrlar yoki konditsionerlarning ishlash tavsifi havo resirkulatsiyalanganda;

— havo o'tkazgichlardagi, ish xonalaridagi havoning va atmosferaga chiqarib tashlanadigan havoning holati (harorati, namligi, chang miqdori);

— havoni almashtirish qurilmasining ishlashi bilan bog'liq bo'lgan texnologik ko'rsatkichlar.

Pnevмотransport qurilmalarida quyidagilar bajariladi:

— uskunaning salt ishlashi tekshiriladi;

— pnevмотransport qurilmasining toza havo bilan ishlagandagi zichligi sinaladi;

— korxona to'liq ishga tushirilib, qurilmalar rostlanadi (pnevмотransport qurilmalarini hisob yuklama ko'rsatkichlariga yaqin bo'lgan yuklama bilan ishlashi tekshiriladi).

Pnevмотransport qurilmalarining salt ishlashini tekshirishda quyidagilar aniqlanadi: shlzli zatvorlar yuritmasining aylanish chas-totasi va shovqinsiz ravon ishlashi; zatvorlar hamda yuritmaning to'g'ri o'rnatilganligi; mahsulot ajratgichlardagi havo sarfini rostlov-chi indikator-drosselli klapanlarning yaxshi ishlashi; pnevmosepa-ratorlarning rostlash va ta'minlash to'siqlari uzatmalari; batareyali siklonlar vertikal holatda o'rnatilganligi; so'ruvchi filtrlarning ma-toli yenglarini notekis tortilgani; havo haydovchi mashinalarning amortizatorlarda to'g'ri o'rnatilganligi; havo haydovchi mashina hamda elektr dvigatelning o'qdoshligi.

2-§. NAZORAT-O'LCHASH ASBOBLARI VA APPARATLARI

Havoni almashtirish va pnevмотransport qurilmalarini sinash o'tkazish hamda rostlashda havoning quyidagi asosiy ko'rsatkichlari: bosimi, tezligi, harorati, namligi va changlilikini aniqlash uchun nazorat-o'lchash asboblari va apparatlardan foydalaniladi.

Havoni almashtirish va pnevмотransport tarmog'ining havo o'tkazgichlaridagi ortiqcha bosimni o'lchash uchun mikromanometr-lar qo'llaniladi.

Oddiy U-simon suyuqlikli mikromanometr. Mikromanometr diametri 6...8 mm bo'lgan, U shaklidagi shisha naychadan tuzil-

gan. Naychalarning uchlari ochiq bo'lib, rezinka naycha kiygizish uchun uchlik qilingan. Ushbu mikromanometrilar suyuqlik (asosan suv yoki spirt) bilan to'ldiriladi.

Havo o'tkazgichlardagi havo bosimini U-simon mikromanometr bilan o'lchashda ortiqcha bosim quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$H_s = h \cdot \rho_s \cdot g,$$

bu yerda: h — mikromanometr ustunidagi suyuqlikning balandligi, mm; ρ_s — suyuqlikning zichligi, g/sm³; g — erkin tushish tezlanishi, m/s²; U-simon mikromanometrning tuzilishi juda oddiy bo'lib, quyidagi kamchiliklarga ega:

1. Havo o'tkazgichdagi havo oqimi bosimi 200 Pa dan past bo'lganda, bosimni o'lchash aniqligi kichik bo'ladi.

2. Mikromanometr naychasidagi h balandlikdagi suyuqlik miqdorini hisoblash noqulay, chunki buning uchun naycha shkalasidagi noldan pastda va yuqorida bo'lgan ko'rsatkichlar yig'indisini olish kerak.

Idishli mikromanometrilar. Idishli mikromanometrlarda ikki naychali mikromanometrning bir naychasi idish bilan almash-tirilgan, uning gorizontol kesimi yuzi naychaning kesimi yuzidan 200—700 barobar katta.

Idishli mikromanometrlarning kamchiligi ikki naychali mikromanometrning kamchiligiga o'xshashdir, ya'ni 200 Pa dan bosimlarni kichik aniqlik bilan o'lchaydi.

Kichik bosimlarni aniqroq o'lchash uchun qiya naychali idishli mikromanometrlar va naychasi o'zgaruvchan burchakka ega bo'lgan MMH markali mikromanometrlar ishlatiladi (15-rasm).

MMH mikromanometrlari uchun quyidagi tenglama ishlatiladi:

$$\pm H = h \cdot g \cdot K \text{ (Pa)},$$

bu yerda: K — mikromanometr koeffitsiyenti:

$$K = \sin \alpha \cdot \rho_s,$$

ρ_s — suyuqlikning zichligi, g/sm³.

Pnevmetrik naycha. Havo o'tkazgichdagi havo oqimi bosimini qabul qilib olish uchun pnevmetrik naycha ishlatiladi.

Pnevmetrik naycha havo o'tkazgichning berilgan joyidagi teshik ichiga tiqiladi va o'sha joydagi bosimni qabul qilib oladi. Pnevmetrik naycha orqali qabul qilingan bosim rezinka ichak

yordamida mikromanometrغا uzatiladi. Mikromanometrdaǵı bosım ko'rsatkichi o'lchab olinadi.

Pnevmetrik naychani havo o'tkazgichning ichiga o'rnatish sxemasi 18-rasmda ko'rsatilgan.

Pnevmetrik naychanning tuzilishi 17-rasmda ko'rsatilgan.

Havoni almashtirish qurilmalarining havo o'tkazgichlaridagi havo bosimini o'lchashda pnevmetrik naycha havo o'tkazgichga perpendikular holda o'rnatiladi (18-rasm). Bunda pnevmetrik naychanning egilgan yarimsferik bosh qismi havoning yo'nalishiga qarama-qarshi o'rnatilishi kerak.

Havo oqimining tezligini anemometrlar bilan o'lchash. Anemometrlar ochiq havo oqimlari tezligini o'lchashga asoslangan. Ishlash asosiga ko'ra anemometrlar mexanik, elektr va induksion turlarga bo'linadi.

Mexanik anemometrlarga parrakli va likobchali anemometrlar kiradi. Parrakli anemometrlar 0,1 dan 5 m/s gacha bo'lgan kichik tezliklarni o'lchashga mo'ljallangan. Likobchali anemometrlar 0,5 dan 50 m/s gacha bo'lgan tezliklarni o'lchash uchun ishlatiladi. (20-rasm).

Havoning tezligini mexanik anemometrlar bilan o'lchaganda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$v = K \frac{l_b - l_o}{t},$$

bu yerda: K — asbob pasportiga ko'ra aniqlanadigan tuzatuvchi koeffitsiyenti; l_b va l_o — shkalaning boshlang'ich va oxirgi ko'rsatkichlari; t — o'lchash vaqti (sek); $t = 60$ sek.

Induksion anemometrlarning ishlashi elektromagnit induksiya-si qoidasiga asoslangan. Induksion anemometrlarning o'lchamlarining kattaligi va havo o'tkazgichlarda havoning tezligini o'lchash qiyinligi ularning kamchiligi hisoblanadi (21-rasm).

Havoning tezligini dinamik bosim orqali o'lchash. Havo quvuri ko'ndalang kesimining istalgan nuqtasidagi havoning tezligi v (m/s) dinamik bosimga ko'ra quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$v = \sqrt{\frac{2H_D}{\rho}}.$$

Standart havo uchun $\rho = 1,2$ kg/m³. U holda $v = 1,29\sqrt{H_D}$ bo'ladi, bu yerda: N_D — dinamik bosim, Pa.

Mikromanometr va pnevmometrik naycha yordamida havo o'tkazgichdagi umumiy va statik bosimlar o'lchanadi va quyidagi formula bilan dinamik bosim hisoblanadi:

$$N_D = H_u - H_s$$

bu yerda: H_u — ortiqcha umumiy bosim; H_s — ortiqcha statik bosim.

Havodagi chang miqdorini aniqlash. Changli havoni har tomonloma tadqiq qilishda undagi changning miqdori va tavsifi (fraksi-on tarkibi, nimadan hosil bo'lgani va kimyoviy tarkibi, zichligi va b.). Bu ishini korxonaning sanitariya-gigiyenik sharoitini tekshiruvchi maxsus tashkilotlar amalga oshiradi.

Donni qayta ishlash korxonalarining ish xonalari va havo o'tkazgichlardagi changning massa bo'yicha miqdorini texnik xodimlar aniqlaydi.

Havodagi chang miqdorini aniqlashning quyidagi usullari mavjud: og'irligini aniqlash, miqdoriy, fotometrik, elektrostatik, akustik (ultratovush yordamida aniqlash).

Havodagi chang miqdorini aniqlash usullaridan eng ko'p tarqalgani changning og'irligini aniqlash usulidir. Bu usul yuqori darajada ishonchliligi va oddiyligi bilan boshqa usullardan farq qiladi.

Changning og'irligini aniqlash usuli changli havoni filtrdan o'tkazishga asoslangan bo'lib, bunda changni ushlab qolish koeffitsiyenti juda katta (100 % ga yaqin) bo'ladi. Filtr analitik taroziga changni havoni o'tkazishdan oldin va keyin o'lchanadi. Filtrning massalardagi farqqa qarab changning miqdori aniqlanadi. Bu usul uchun maxsus qurilma (76-rasm) qo'llaniladi.

Qurilmaning chang yig'uvchi patroni 8 ga maxsus sintetik materialdan tayyorlangan filtr o'rnatilgan. Ba'zan patron o'rniga changni yig'uvchi paxta filtrli shisha naycha 7 (allonj deb ataladi) ham qo'llaniladi. Allonj uzunligi 100 mm, diametri 20...25 mm bo'lgan shisha patrondir. Xonadagi changli havoni so'rib olish uchun mo'ljallangan allonjning diametri 8...10 mm bo'ladi.

Havo o'tkazgichdan changli havo namunalarini olish uchun chang yig'uvchi naycha 11 ishlatiladi. U havo o'tkazgich 10 ning teshigiga pnevmometrik naycha kabi o'rnatiladi.

Chang yig'uvchi naycha 11 rezina naycha bilan patron 6 ga yoki allonj 7 ga birlashtiriladi.

Havo o'tkazgichlardagi havo tarkibidagi chang miqdorini aniqlash usuli 77-rasmda keltirilgan.

Havodagi chang miqdori changlanganligi (mg/m^3) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$a = \frac{1000(A_2 - A_1)}{Q \cdot t},$$

bu yerda: A_1 — filtr yoki allonjning namuna olguncha bo'lgan massasi, mg; A_2 — filtr yoki allonjning namuna olgandan keyingi massasi, mg; Q — filtr yoki allonjdan o'tgan havo miqdori, l/min (areometr shkalasining ko'rsatkichi bo'yicha qabul qilinadi); t — filtr yoki allonjdan havoning o'tish vaqti, min.

3-§. ASPIRATSIYA VA PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI SOZLASH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH

Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalarining ishlash samaradorligi tarmoqlarning to'g'ri joylashtirilishi va to'g'ri hisoblanishiga, uskunalarning to'g'ri o'rnatilishiga, havo o'tkazgichlar, chang ajratgichlar va hamma aspiratsiya qilinadigan uskunalarning zichligiga, hamda ularga malakali xizmat ko'rsatilishiga (to'g'ri ishlatilishiga) bog'liq. To'g'ri loyihalangan va o'rnatilgan qurilmalar to'g'ri ishlatish ma'lum vaqtdan keyin to'g'ri ishlatilmasa, ular qoniqarsiz holatga keladi.

Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalarini to'g'ri ishlatish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

- har kuni uskunalarning ishlashini kuzatish;
- o'z vaqtida ularni ta'mirlash;
- xavfsizlik texnikasi va yong'inga qarshi chora-tadbirlarni ta'minlovchi hamma qoidalarga amal qilish.

Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalarini ishlatish davrida ko'pincha quyidagi nosozliklar uchraydi:

— jihozlar va qabul qiluvchi uskunalaridan so'rib olinadigan havo miqdori belgilangan havo sarfiga mos kelmasligi, bu hol jihozlarning samarali ishlashini yomonlashtiradi;

— tarmoqning zich germetik bo'lmashligi tashqaridan ko'p miqdorda qo'shimcha havo so'rilishiga olib keladi. Bu esa foydali havo sarfini va tarmoq qismlaridagi havo oqimining tezligini kamaytiradi, havo o'tkazgichlarning ichki yuzalariga chang o'tirishini ko'paytiradi;

— texnologik va transport jihozlari havoni almashtirish uskunalarining buzilishi.

Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalari yaxshi ishlashi uchun, nosozlik yuz berganda havoni almashtirish tizimlari avtomatik to'xtashini ta'minlash kerak. Bunda bu qurilmalarning samarali va ishonchli ishlashi ta'minlanadi. Masalan, noriyalarda mahsulot to'lib ketsa, aspiratsiya qurilmalarini avtomatik to'xtatish uskunalari buzilgan yoki havo o'tkazgich va chang ajratgichlarga xomashyo yoki tayyor mahsulot havo bilan so'rilayotgan bo'ladi.

Aspiratsiya va pnevmotransport jihozlariga xizmat ko'rsatish. Aspiratsiya qurilmalari ishonchli ishlashi uchun mashina korpuslari yoki maxsus moslamalar (ko'rish tuynuklari, darcha va eshikchalar) ning zichligini ta'minlash kerak. Mashina yoki uskuna kanallarida havo uzatilishini va taqsimlanishini rostlovchi klapanlar va to'siqlar tizimi to'g'ri ishlashini doimo kuzatib turish lozim. Aspiratsiya kanallari va cho'ktirish kameralari chang bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Pnevmotransport qurilmalariga xizmat ko'rsatishda quyidagilarni bajarish kerak:

- pnevmotransport qurilmalariga bir me'yorda mahsulot tushayotganini muntazam ravishda kuzatish;

- pnevmotransport qurilmasiga havo kerakli miqdorda (hisoblangan miqdorda) kirishini ta'minlash;

- bo'shatkichdan mahsulot uzluksiz chiqishini muntazam ravishda kuzatish (shluzli zatvordan oldin o'rnatilgan ko'rish darchasi orqali).

Havo o'tkazgichlar va mahsulot o'tkazgichlarga xizmat ko'rsatish. Havo o'tkazgichlar yaxshi ishlashini ta'minlash uchun havoning qo'shimcha so'rilishini yoki chiqishini bartaraf etish, o'tkazgichlarda chang o'tirib qolishining oldini olish va ortiqcha shakldor detallarni kamaytirish kerak. O'tkazgichlarning birikish joylari zich (germetik) bo'lishini ta'minlash lozim.

Pnevmotransport tarmoqlari uchun ichki yuzasi silliqlangan quvurlar ishlatish kerak.

Havo quvurlarida suv tomchilari (kondensat) hosil bo'lganda katta miqdorda issiqlik va namlik chiqaradigan mashinalarning haqiqiy havo sarfi me'yoriy sarfga mos kelishi tekshiriladi. Havo o'tkazgich o'tgan xona haroratining pasayishi ham namlikni suvga aylanishiga olib keladi. Agar xonaning haroratini kerakli me'yorda saqlashning iloji bo'lmasa, shu qismdagi havo o'tkazgich issiqlik o'tkazmaydigan material (mineral paxta) bilan o'rab qo'yiladi. Havo o'tkazgichlarni muntazam ravishda changdan tozalash kerak, bu

esa don zaxira zararkunandalariga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega

Tekshirish uchun savollar

1. Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalari nima maqsadda sinovdan o'tkaziladi?
2. Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalarini sinash ishlari qanday ketma-ketlikda amal oshiriladi?
3. Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalarini sinashda ularning qaysi ish ko'rsatkichi aniqlanadi?
4. Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalarini sinashda qanday nazorat-o'lchash asboblari qo'llaniladi?
5. Pnevmonometricha qanday tuzilgan?
6. Havo tarkibi chang miqdori qanday usullar bilan aniqlanadi?
7. Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalarining samaradorli ishlashi qaysi omillarga bog'liq?
8. Chang ajratgichlar, bo'shatgichlar va shuluzli to'siqlar yaxshi ishlashi uchun nimalarni tanlash kerak?
9. Pnevmotransport qurilmalariga xizmat ko'rsatish xususiyatlari nimalardan iborat?

XII BO'LMANI TA'JIRIBA VA AMALIY ISHLAR UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR

UMUMIY USLUBIY KO'RSATMALAR

Aspiratsiya pnevmotransport qurilmalarini sinashda bajariladigan ta'jiriba va amaliy ishlar uchun har bir kolleжда «Laboratoriya aspiratsiya qurilmasi va vertikal joylashgan ishlovchi pnevmotransport qurilmasi» stendi hamda o'lchash asboblari va apparatlari bo'lsa shart. Qurilmalar tarmoqlarining uzunligi, alohida qismlarning o'lchamlari va umumiy joylashuvi bu qurilmalar joylashtiriladigan har bir xonaning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Aspiratsiya qurilmalarini sinashda bajariladigan amaliy-tajriba ishlari uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

- 50 va 100 l icha shkalali termometrlar;
- psixrometr;
- barometr;
- mikromannometrlar;
- rezinka shuluzli pnevmometrik naychalar;
- metall chizgich;

- taxometr;
- sekundomer.

Har bir amaliy-tajriba ishlarining turiga qarab kerakli nazorat-o'lchash asboblari va apparatlari qo'llaniladi.

2-§. AMALIY VA TAJRIBA ISHLARINI BAJARISH UCHUN ALOHIDA USLUBIY KO'RSATMALAR

1-amaliy ish. Havo o'tkazgichning havo sarfini va havo oqimining harakatlanish tezligini nomogramma va hisoblash jadvallaridan aniqlash

Ishdan maqsad: Aspiratsiya qurilmalarini sinashda va yuzlashda havo o'tkazgichlardagi havoning tezligi va havo sarfini o'lchashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Aspiratsiya qurilmasining havo o'tkazgichi yoniga mikromanometr o'rnatiladi va uning zichligi tekshiriladi. Bosimni o'lchash uchun havo o'tkazgichning kesimlari tanlanadi va shu kesimlarda havo o'tkazgichning haqiqiy diametri o'lchab aniqlanadi. Agar havo o'tkazgichning o'lchab aniqlangan diametrlari standart diametrlarga mos kelmasa, nomogrammadan (19-ilova) yoki 17-ilovadan havo o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi S aniqlanadi. Havo o'tkazgichning ichki devoridan o'lchash nuqtalarigacha bo'lgan oraliq 18-ilovadan topiladi va 12-jadvalga yoziladi. Bu o'lchash nuqtalari bo'yicha havo o'tkazgichdagi bosimni o'lchash uchun MMH mikromanometri yordamida umumiy va statik bosimlar o'lchanadi. Umumiy (H_u) va statik (H_s) bosimlar farqiga ko'ra quyidagi formuladan dinamik bosim aniqlanadi:

$$H_d = \pm H_u - (\pm H_s).$$

O'rtacha dinamik bosim ($H_{d.o'r}$) yordamida nomogrammadan (19-ilova) yoki 17-ilovadan havoning o'rtacha tezligi aniqlanadi.

Havoning tezligini quyidagi formuladan ham aniqlash mumkin:

$$v = 1,29 \sqrt{H_{d.o'r}}.$$

Havo o'tkazgichning aniqlangan diametri va havoning tezligi qiymatlariga qarab nomogrammadan (19-ilova) yoki 17-ilovadan havo sarfi aniqlanadi. Havo sarfini (m^3/s) quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$Q = 3600 \cdot F \cdot v_{or},$$

bu yerda: F — havo o'tkazgich kesimining yuzi, m^2 ; v_{or} — havoning o'rtacha tezligi, m/s .

O'lchash va hisoblash natijalari 12-jadvalga yoziladi.

12-jadval

O'lchash va hisoblash natijalari

O'lchash nuqtalari	Havo o'tkazgich devoridan o'lchash nuqtalarigacha bo'lgan oraliq, mm	Havo o'tkazgichning diametri, mm	Ortiqcha bosim, Pa				Havoning tezligi v , m/s	Havo sarfi Q , m^3/s
			Mikromanometr ko'rsatkichi l_u , mm	Umumiy bosim $\pm H_u$	Mikromanometr ko'rsatkichi l_s , mm	Statik bosim, $\pm H_s$		
1								
2								
3								
4								
5								
6								

Tekshirish uchun savollar

1. Havoning tezligini qaysi usullar va asboblardan aniqlash mumkin?
2. Qaysi hollarda havoning tezligini o'lchash uchun anemometrlar qo'llaniladi?
3. Havo o'tkazgich ichidagi havoning tezligi qaysi usullar bilan aniqlanadi?
4. Havo o'tkazgich ichidagi havoning o'rtacha tezligi va havo sarfi qaysi formulalar bilan hisoblanadi?
5. Havo o'tkazgich ichidagi havoning o'rtacha dinamik bosimi qaysi formula bilan hisoblanadi?

2-amaliy ish. Havo o'tkazgichning standart diametrlarini havo sarfi orqali nomogrammadan aniqlash

Ishdan maqsad. Aspiratsiya qurilmalarining havo o'tkazgichlari diametrlarini havo sarfiga bog'liq holda to'g'ri tanlanganligini aniqlash.

Ishni bajarish tartibi. Aspiratsiya qurilmasining zichligi tekshiriladi. Aspiratsiya qurilmasidagi har bir havo o'tkazgichning haqiqiy diametrlari o'lchab aniqlanadi. Aspiratsiya tarmog'ining har bir qismidagi aspiratsiya qilingan mashinaning havo sarfi 10-ildan

aniqlanadi. Agar mashina yoki uskunaning markasi aniq bo'lmasa, havo o'tkazgichdagi havo sarfi havoning o'rta tezligini topish usuli bilan aniqlanadi. Havo o'tkazgichning ichidagi havoning dinamik bosimi mikromanometr yordamida o'lchab topiladi. Aspiratsiya tarmog'ining belgilangan qismlaridagi havo o'tkazgichlarda aniqlangan havo sarfi, dinamik bosim yoki havoning tezligi orqali nomogrammadan (19-ilova) havo o'tkazgichning standart diametri aniqlanadi. Havo o'tkazgichning aniqlangan haqiqiy diametri standart diametriga mos kelishi yoki mos kelmasligi tekshiriladi. Aniqlangan hamma o'lchash va hisoblash natijalari 13-jadvalga yoziladi.

13-jadval

O'lchash va hisoblash natijalar

Tarmoq qismlarining tartib raqami	Havoning tezligi v , m/s	Havo sarfi Q , m^3/s	Dinamik bosim H_d , Pa	Havo o'tkazgichning diametri, mm	
				haqiqiy	standart
1					
2					
3					
4					

Tekshirish uchun savollar

1. Havo o'tkazgichning diametri qanday tanlanadi?
2. Aspiratsiya tarmog'idagi havo o'tkazgichlarning haqiqiy diametri hisoblangan diametridan kichik yoki katta bo'lsa, havo o'tkazgichdagi havoning tezligi qanday o'zgaradi?
3. Havo o'tkazgichdagi havo sarfining oshishiga nimalar sabab bo'ladi?
4. Aspiratsiya tarmog'idagi havo o'tkazgichning ichki diametri qanday sharoitda kichiklasha boshlaydi?

3-amaliy ish. Aspiratsiya qurilmalari uchun siklonlar tanlash.

Ularning qarshilik bosimi va samaradorligini aniqlash

Ishdan maqsad. Aspiratsiya qurilmalari tarmog'idagi havo sarfi orqali samaradorli chang ajratgichni (siklonni) tanlashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Aspiratsiya tarmog'ining umumiy havo sarfi va havo o'tkazgichlardagi qo'shimcha so'riladigan 5% havo sarfini hisobga olib chang tozalagich tanlanadi va uning qarshiligi aniqlanadi.

Tanlangan aspiratsiya tarmoqlarning xiliga va changning tavsifiga qarab, chang tozalagich tanlanadi.

Misol. Elevatordagi aspiratsiya tarmoqlari havoni tashqariga tashlaydi, shuning uchun ishlatishda oddiy va mustahkam БИШ, YII markali siklonlar qo'llaniladi. Havoni yuqori samara bilan tozalash uchun siklonlar o'rniga so'ruvchi filtrlar qo'llaniladi yoki siklonlardan keyin havo yana bir marta filtrlarda tozalanadi.

Tarmoq uchun siklonlar quyidagicha tanlanadi.

Aspiratsiya tarmog'ining havo sarfi miqdori (o'qituvchi tomonidan beriladi) asosida 2...6-ilovalardan diametri kichik bo'lgan siklon tanlab olinadi va uning tashqi o'lchamlari yozib qo'yiladi. Siklonning kirish teshigi yuzi aniqlanadi va quyidagi formuladan havoning kirish tezligi hisoblanadi:

$$v_k = Q/3600 \cdot S, \text{ m/s},$$

bu yerda: Q — aspiratsiya tarmog'idagi havo sarfi, m^3/soat ; S — siklonga havo kiradigan teshikning yuzi, m^2 .

Siklonga havo kiradigan teshikning o'lchamlari 2...6-ilovalardan aniqlanadi.

Siklonga havo kiradigan teshikning yuzi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S = A \cdot B.$$

Topilgan tezlik eng maqbul tezlik bilan solishtiriladi (1-ilova). Agar hisoblangan tezlik eng maqbul tezlikka yaqin bo'lsa, siklon to'g'ri tanlangan.

Siklonning qarshilik bosimi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$H_s = \zeta_s \frac{1,2 \cdot v_k^2}{2}, \text{ Pa},$$

bu yerda: v_k — siklonga kirayotgan havoning tezligi, m/s ; ζ_s — siklonning qarshilik koeffitsiyenti (1-ilovadan olinadi).

Tekshirish uchun savollar

1. Aspiratsiya tarmog'iga siklonlar qanday tanlanadi?
2. Siklonlarning qarshilik bosimi kamayishi yoki ortishiga qaysi ko'rsatkichlar ta'sir qiladi?
3. Havoni un changidan tozalashda qaysi siklonning tozalash koeffitsiyenti yuqori bo'ladi?
4. Siklonlarning qaysi turlarida havoning eng maqbul kirish tezligi yuqori, qaysilarida past bo'ladi?
5. Siklonlarning filtrlarga nisbatan afzalliklari nimada?
6. Siklonlarning filtrlarga nisbatan kamchiligi nimada?

4-amaliy ish. Aspiratsiya qurilmalari uchun filtrlar tanlash. **Ularning qarshilik bosimini va samaradorligini aniqlash**

Ishdan maqsad. Aspiratsiya tarmoqlari uchun filtrlarni tanlashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Matoli filtrlar quruq usul bilan havoni changdan samarali tozalashga mo'ljallangan. Bu filtrlarning tozalash koeffitsiyenti $99,8 \div 99,9 \%$ ga teng bo'lib, havoning chiqishdagi chang miqdori 10 mg/m^3 dan ortiq bo'lmasligini ta'minlaydi. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida asosan so'ruvchi filtrlar qo'llaniladi.

Tegirmonning donni tozalash, maydalash va qoplash bo'limlarida, yorma korxonalarining po'stni ajratish bo'limlarida Г4-1БФМ, А1-БФМ, ПЦИ markali so'ruvchi filtrlar ishlatiladi.

Aspiratsiya qurilmalariga changdan tozalovchi filtr quyidagicha tanlanadi va hisoblanadi. Chang tozalagichning filtrlovchi yuzi havo sarfi (o'qituvchi tomonidan beriladi) va filtrning matosiga tushadigan joiz solishtirma yuklama orqali quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$S_f = Q/q_s,$$

bu yerda: Q_1 — tarmoqdagi havo sarfi, m^3/soat ; q_s — filtrlovchi matoga tushayotgan solishtirma yuklama, $\text{m}^3/(\text{soat} \cdot \text{m}^2)$.

Topilgan filtrlovchi yuzaga yaqin bo'lgan ПЦИ filtri 7, 8, 9-ilovalardan tanlanadi va filtrning haqiqiy solishtirma yuklamasi aniqlanadi.

Filtrlovchi yuzaga tushadigan solishtirma yuklama (q_s) quyidagiga teng:

Г4-1БФМ markali filtrda — $90 \dots 120 \text{ m}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{soat})$;

А1-БФЕ markali filtrda — $400 \text{ m}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{soat})$;

ПЦИ markali filtrda — $420 \dots 480 \text{ m}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{soat})$.

Filtrning qarshilik bosimi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$H_f = 10 \cdot q_s.$$

Tekshirish uchun savollar

1. Aspiratsiya tarmog'i uchun filtrlar qanday tanlanadi?
2. Filtrlarning ishlash samaradorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Filtrlarning siklonlarga nisbatan afzalliklari nimalardan iborat?
4. Filtrlarning qanday kamchiliklari mavjud?

5, 6-amaliy ishlar. Aspiratsiya qurilmalari uchun ventilatorlarni tanlash

Ishdan maqsad. Ventilatorning bosimi va havo sarfini aniqlash hamda aspiratsiya qurilmalari uchun ventilator tanlashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Aspiratsiya qurilmalarida havoni harakatga keltirish uchun ventilator o'rnatiladi. Aspiratsiya qilinadigan uskuna va mashinalardan changli havoni so'rib olish, havo o'tkazgichlar yordamida changli havoni chang tozalagich (siklon, filtr)ga uzatish va tozalangan havoni tashqariga chiqarish yoki resirkulatsiyalashga yuborish uchun aspiratsiya tarmoqlariga ventilator o'rnatiladi.

Ventilatorning havo sarfi va qarshilik bosimini aniqlagandan keyin ventilatorning tavsifnomalaridan (15-ilova) foydali ish koeffitsiyenti eng katta bo'lgan ventilator tanlanadi.

Ventilatorning havo sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_v = Q_t + Q_s,$$

bu yerda: $Q_s = Q_{s1} + Q_{s2}$ — qo'shimcha so'riladigan havo sarfi, tarmoqdagi umumiy havo sarfining 10% ni tashkil etadi; Q_{s1} — filtrda so'riladigan qo'shimcha havo sarfi; Q_{s2} — aspiratsiya tarmog'ida so'riladigan qo'shimcha havo sarfi.

$$Q_{s1} = Q_t \cdot 0,05;$$

$$Q_{s2} = Q_t \cdot 0,05.$$

Q_t — aspiratsiya tarmog'idagi havo sarfi, m^3/soat .

Ventilatorning qarshilik bosimi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_v = H_t \cdot 1,1,$$

bu yerda: H_t — aspiratsiya tarmog'ida yo'qotilgan bosim, Pa.

Ventilatorning aniqlangan havo safi (Q_v) va qarshilik bosimi (H_v) asosida 15-ilovadagi ventilatorning tavsifidan ventilator tanlanadi. Uning foydali ish koeffitsiyenti yuqori bo'lishi kerak. Ventilatorning quvvati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_v = Q_v \cdot H_v / 3600 \cdot 1000 \cdot \eta_v, \text{ kW},$$

bu yerda: η_v — ventilatordagi podshipnikning foydali ish koeffitsiyenti.

Ventilator elektr dvigatelining quvvati aniqlanadi:

$$N_e = N_v \cdot K_1 = N_v \cdot 1,2.$$

Ventilator ishlashi uchun 15-ilovadan elektr dvigatel tanlanadi. Aspiratsiya tarmoqlariga ventilator tanlash uchun o'qituvchi tomonidan bir guruhga tarmoqning taxminiy havo sarfi va yo'qotilgan bosimi ko'rsatkichlarini aniqlash vazifasi beriladi.

Tekshirish uchun savollar

1. Ventilatorlar belgisi nimalardan iborat?
2. Aspiratsiya tarmoqlari uchun qanaqa ventilatorlar tanlanadi?
3. Aspiratsiya qurilmalarining qaysi joyiga ventilatorlar o'rnatiladi?
4. Aspiratsiya tarmoqlari uchun ventilatorlar qanday tanlanadi?
5. Ventilatorlar uchun elektr dvigatellari qanday tanlanadi?

7-amaliy ish. Pnevмотransport qurilmalarida qo'llaniladigan qabul qiluvchi va bo'shatuvchi uskunalarning turlarini o'rganish

Ishdan maqsad. Pnevмотransport qurilmalaridagi mahsulotni qabul qiluvchi va bo'shatuvchi uskunalarning qarshilik bosimlarini aniqlashni va ularning turlariga bog'liq holda qo'llanilishini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Pnevмотransport qurilmalarida qo'llaniladigan mahsulotni qabul qiluvchi va bo'shatuvchi uskunalarning turlari va tuzilishi o'rganiladi. Keyin qabul qiluvchi va bo'shatuvchi uskunalarda yo'qotilgan bosimlar aniqlanadi. Buning uchun uskunalaridagi havoning dinamik bosimi o'lchanadi va formula yordamida yo'qotilgan bosim hisoblanadi.

Pnevмотransport qurilmalarining qabul qiluvchi uskunalari har xil tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin ular mahsulotni havo bilan bir me'yorda kerakli miqdorda aralashtirishi va bu aeroaralashmani mahsulot quvuriga uzluksiz uzatishi kerak. Mahsulotni ko'chirish uchun qabul qiluvchi uskunaga kerakli havo miqdori erkin, qo'shimcha qarshiliksiz kirib turishi shart.

So'ruvchi va uzatuvchi mahsulot quvurlariga mahsulotni uzatish uchun har xil konstruksiyali qabul qiluvchi uskunalar mavjud (52, 53, 54, 55, 56, 57, 58-rasmlar). So'ruvchi pnevмотransport qurilmalari uchun vertikal yoki gorizontal qabul qiluvchi uskunalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, dastgohlar, qayroqllovchi va silliqlovchi mashinalar ichiga o'rnatilgan qabul qiluvchi uskunalar bor.

Pnevмотransportning qabul qiluvchi uskunasi yo'qotilgan bosim $H_{q.u.}$ uning turiga bog'liq holda quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{q.u.} = \xi_{q.u.} \cdot \rho_h \frac{v_{q.u.}^2}{2} = \xi_{q.u.} \cdot H_D,$$

bu yerda $\xi_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunaning turiga bog'liq bo'lgan qarshilik koeffitsiyenti (8-jadval); ρ_h — havoning zichligi, kg/m^3 ; $v_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunadagi havoning tezligi, m/s ; H_D — dinamik bosim, Pa.

$\xi_{q.u.}$ — koeffitsiyentning qiymati quyidagicha qabul qilinadi (8-jadval).

Pnevмотransport qurilmalarida ko'chiriladigan mahsulot va havoni bir-biridan ajratish uchun har xil ajratgichlar: hajmiy (cho'ktirish kameralari), markazdan qochma (siklonlar) ajratgichlar va pnevmoseparatorlar (59, 60, 61, 62, 63 va 64-rasmlar) ishlatiladi.

Mahsulot ajratgichda yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{s.a} = \xi \cdot \rho \cdot v_k^2 / 2,$$

bu yerda: ξ — mahsulot ajratgich-siklonning qarshilik koeffitsiyenti, u quyidagiga teng:

$$\text{ЦПК} — 3,7$$

$$\text{ЦП} — 4,5$$

УЦ38-20 Ду (Ду-mahsulot ajratgich siklonning diametri).

v_k — mahsulot ajratgich siklonning patrubogidagi havoning tezligi, m/s quyidagicha:

ЦПК mahsulot ajratgich-sikloni uchun:

don uchun 8...10 m/s ;
yormalash va yanchish tizimlarining mahsulotlari uchun 14...20 m/s ;

ЦП mahsulot ajratgich-sikloni uchun:

yanchish tizimlarining mahsulotlari uchun 14...18 m/s ;
УЦ-38 mahsulot ajratgich sikloni uchun:
yanchish mahsulotlari va un uchun 10...12 m/s .

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport qurilmalari uchun mahsulot qabul qiluvchi uskunalarini tanlashga qanday talablar qo'yiladi?
2. So'ruvchi pnevmotransport qurilmalarida mahsulot qabul qiluvchi uskunalarining qaysi turlari qo'llaniladi?
3. Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida mahsulot qabul qiluvchi uskunalarining qaysi turlari ishlatiladi?

4. Mahsulotni havodan ajratish uchun qo'llaniladigan bo'shatuvchi uskunalarning tuzilishi va ishlash asosi qanday?
5. Mahsulotni qabul qiluvchi va bo'shatuvchi uskunalaridagi havoning dinamik bosimi qanday o'lganadi?

8-amaliy ish. Pnevmotransport qurilmalarida qo'llaniladigan chang ajratgich va havo so'ruvchi mashinalarning turlarini o'rganish

Ishdan maqsad. Pnevmotransport qurilmalarida qo'llaniladigan chang ajratgichlar va havo so'ruvchi mashinalarning qarshilik bosimlarini hisoblashni va turlarini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Pnevmotransport qurilmasining havoni almashtirish qismidagi chang ajratgichning turlari va tuzilishi o'rganiladi. Keyin havo so'ruvchi va haydovchi mashinalarning turlari va tuzilishi o'rganiladi hamda mashinalarni tanlash uchun kerakli bosimlar hisoblab aniqlanadi.

Pnevmotransport qurilmalarida pnevmoseparator va mahsulot ajratgichlarda havodan don ajratib olingandan keyin chang havoni tozalash uchun 4БЦШ, УЦ markali batareyali chang ajratgichlar va РЦИ markali filtrlar qo'llaniladi (35, 36, 37, 38, 39-rasmlar). Pnevmotransport qurilmalari uchun batareyali chang ajratgich siklonlar havo sarfiga ko'ra tanlab olinadi.

Pnevmotransport qurilmasida havoni ko'chirish uchun havo haydovchi mashinalar bosimlar farqini hosil qiladi, havo bilan birga mahsulotni ham qabul qilish joyidan bo'shatish joyigacha ko'chiradi (68, 69-rasmlar).

Don va maydalangan don mahsulotlarini ko'chirish uchun pnevmotransport qurilmasida ikki turdagi havo haydovchi mashinalar: hajmiy va markazdan qochma (parrakli) mashinalar ishlatiladi.

Havo haydovchi mashinalarni tanlashda pnevmotarmoqning ko'rsatkichlari hisoblangan havo sarfi (Q_h) va hisoblangan bosim ($H_{h.u}$) asosida havo haydovchi mashinaning tavsifnomasidan tanlanadi.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan bosimi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{h.u} = \frac{H_h}{1 - \frac{H_h}{101300}},$$

bu yerda: H_h — pnevmotransport qurilmasining hisoblab aniqlangan bosimi, Pa.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan havo sarfi Q_h quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_h = 1,05 (\Sigma Q_f + \Sigma \Delta Q_f),$$

bu yerda: Q_f — filtrga kiradigan havo miqdori, m^3/soat ; ΔQ_f — filtrga qo'shimcha so'riladigan havo miqdori, m^3/soat .

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport tarmoqlarida qo'llaniladigan chang ajratgichlarga qanaqa talablar qo'yiladi?
2. Chang ajratgichlar qanday tanlanadi?
3. Pnevмотransport qurilmalarida qaysi havo so'ruvchi va haydovchi mashinalar qo'llaniladi?
4. Havo haydovchi mashinalarning ishlash asosi qanday?
5. Havo haydovchi mashinalarning hisoblangan bosimi qanday aniqlanadi?

9-amaliy ish. Pnevмотransport qurilmalarini hisoblash uchun kerakli parametrlarni (havo sarfi, material o'tkazgichning diametri, aralashma miqdorini) aniqlash

Ishdan maqsad. Pnevмотransport tarmoqlarini loyihalash va sinashda kerak bo'ladigan parametrlarni aniqlashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Pnevмотransport qurilmalarini sinashda quyidagi parametrlar hisoblash orqali (havo sarfi, material o'tkazgichning diametri, aralashmaning miqdoriy koeffitsiyenti) aniqlanib, qurilmaning haqiqiy parametrlari bilan solishtiriladi. Olingan natijalar asosida xulosalar chiqariladi.

Pnevмотransport qurilmasining unumdorligi (kg/soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = a \frac{1000 \cdot G_{\text{sut}}}{24},$$

bu yerda: a — notekislik zaxira koeffitsiyenti bo'lib, texnologik jarayonning xususiyatlarini hisobga oladi; $a = 1,2$; 24 — sutkadagi ish soatlari soni; G_{sut} — korxonaning sutkadagi unumdorligi, t/sutka .

Havoning standart zichligini $\rho_a = 1,2 \text{ kg}/m^3$ deb olib, quyidagi formuladan havo sarfi aniqlanadi:

$$Q_h = \frac{G}{1,2 \cdot \mu}$$

Pnevmatik qurilmalarni hisoblashda mahsulotlarni ko'chirish uchun massa bo'yicha miqdoriy koeffitsiyent quyidagicha qabul qilinadi:

- | | |
|-------------------------------------|----------------------------|
| — chiqindilar uchun | $-\mu \leq 1 (0,6...1,0);$ |
| — donni kemadan tushirishda | $-\mu = 25...30;$ |
| — tegirmon va yorma zavodlari uchun | $-\mu = 3,0...6,0.$ |

Mahsulot o'tkazgichdagi havo oqimining hisoblangan tezligi quyidagi formuladan yoki 7-jadvaldan aniqlanadi:

$$v_h = K_z(10,5 + 0,57 \cdot v_k),$$

bu yerda: K_z — pnevmotransport qurilmasida yuklamaning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan ko'chirishning o'zgarishligini ta'minlovchi zaxira koeffitsiyenti; v_k — mahsulotlarning ko'tarilish tezligi, m/s (7-jadval).

Mahsulot quvurining diametri havo sarfi va havoning hisoblangan tezligi asosida 16-ilovadan aniqlanadi.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport qurilmalari nima uchun sinovdan o'tkaziladi?
2. Pnevмотransport tarmoqlaridagi havo sarfi qanday aniqlanadi?
3. Pnevмотransport qurilmalaridagi mahsulot quvurining diametri qanday aniqlanadi?
4. Mahsulot quvurining diametri hisoblangan diametridan katta yoki kichik bo'lsa tarmoqda qanday o'zgarishlar yuz beradi?

10-amaliy ish. Pnevмотransport qurilmalari qismlarida yo'qotiladigan bosimni aniqlash

Ishdan maqsad. Pnevмотransport qurilmasini sinashda uning qismlarida yo'qotilgan bosimni aniqlashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi. Pnevмотransport qurilmasini sinashda uning har bir qismini sinovdan o'tkazish uchun undagi har bir uskuna, mashina va quvurlarda yo'qotilgan bosimlar aniqlanadi va qurilmadagi haqiqiy umumiy yo'qotilgan bosim bilan solishtiriladi. Olingan natijalar asosida pnevmotransport qurilmasining ishlashi haqida xulosalar qilinadi.

Pnevмотransport qurilmasining qismlarida umumiy yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_u = H_{p,k} + H_{v,k},$$

